

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI

ISMAILOV IS'HAQJON OTABAYEVICH

OGAHIYNING TARIXIY-ADABIY ASARLARI POETIKASI

10.00.02 – O'zbek adabiyoti

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской диссертации

Content of the abstract of doctoral dissertation

Ismailov Is’haqjon Otabayevich

Ogahiyning tarixiy-adabiy asarlari poetikasi 3

Исмаилов Исхакджан Отабаевич

Поэтика историко-литературных произведений Агахи 33

Ismailov Iskhakjon Otabaevich

The poetics of Agakhi’s historical and literary works 65

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 70

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI

ISMAILOV IS'HAQJON OTABAYEVICH

OGAHIYNING TARIXIY-ADABIY ASARLARI POETIKASI

10.00.02 – O'zbek adabiyoti

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.DSc/Fil198 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Xorazm Ma'mun akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Shodmonov Nafas Namozovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Sulaymonov Isroil Isomiddinovich
filologiya fanlari doktori, professor

Jabborov Nurboy Abdulhakimovich
filologiya fanlari doktori, professor

Qobilova Zebo Bakirovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 03/05.05.2023.Fil.02.11 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "21" may soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz. Samarqand davlat universiteti, Bosh bino, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (37 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "7" may kuni tarqatildi
(2025-yil "7" may dagi 21 raqamli reyestr bayonnomasi).



Sh.A.Hasanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

D.B.Xursanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

N.M.Muxitdinova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, dotsent

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida har bir xalq adabiyoti taraqqiyotida yetakchi mavqe egallagan ijodkorlar hayoti, ijodiy faoliyati va badiiy mahoratini, ijodiy laboratoriyasi va uning o'ziga xos xususiyatlarini, muayyan xalq adabiy-estetik tafakkuri rivojida badiiy asarning tutgan o'rni masalasini belgilash hamda ularning adabiy merosini kelgusi avlodlarga yetkazish barcha millatlar, xalqlar adabiyotshunosligida izdoshlik, an'anaviylik nuqtayi nazaridan muhim amaliy mohiyat kasb etmoqda. Buning natijasida ijodkor uslubi va poetik mahoratining shakllanishi, milliy va mintaqaviy adabiyotning rivojlanish qonuniyatlari, til xususiyatlari, badiiy timsol va obrazlarning qiyosiy-tipologik masalalari taraqqiyotida irfoniy adabiyot takomili bosqichlari sintezini tarixiy-adabiy asarlar misolida asoslash dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida ijodkor poetik mahorati va ijodiy niyati masalasini uning yuzaga kelish shakllari, janr hamda obraz poetikasi kabi umumnazariy muammolar hamohangligida o'rganish borasida sezilarli yutuqlarga erishilgan. Shuning uchun ham har bir xalqning yetakchi ijodkorlari yaratgan adabiy merosining o'ziga xos tomonlarini yaxlit bir holda tizimli o'rganish, orttirilgan ilmiy tajribalarni rivojlantirib borish adabiyotshunoslik takomilida alohida o'rin egallaydi. Muayyan ijodkor badiiyatini izchil tadqiq etish nafaqat uning badiiy mahoratini ochib berish, balki adabiy jarayon manzarasini, davr muammolari va zamondoshlar ruhiyatini yoritib berishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek adabiyotshunosligida ham keyingi davrlarda adabiyot tarixiga alohida e'tibor qaratilib, mumtoz ijodkorlar badiiy mahoratini tadqiq qilishda ma'lum bir ilmiy-amaliy natijalarga erishilmoqda. Hozirgi davrda asrlar davomida xalqimizning aql-zakovati bilan yaratilgan noyob obidalari, nodir qo'lyozma, toshbosma asarlar qayta nashr qilinib, xalqimizga taqdim qilinmoqda. "Ulug' ajdodlarimizning aql-zakovati va badiiy dahosi bilan yaratilgan noyob asarlar, xususan, matematika, mineralogiya, astronomiya, kimyo, tibbiyot, farmatsevtika, me'morlik, tarix, adabiyot, san'at, ilohiyot, falsafa va boshqa sohalarga oid manbalar nafaqat bizning xalqimiz, balki jahon ahlining bebaho boyligi hisoblanadi"¹. Shu bois o'zbek adabiyotining atoqli namoyandasi, shoir, muarrix va tarjimon Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy (1809-1874) tarixiy-adabiy solnomalarida uchraydigan katta hajmdagi lirik merosning mohiyatini yoritib berish, she'riy parchalarda istifoda etilgan badiiy san'atlar, qofiya, vazn va saj' san'ati namunalarini tasniflash hamda tadqiq qilish, iqtibos qo'llash mahorati, irfoniy, tarixiy, epik timsollarning badiiy-g'oyaviy vazifalari, ularning tarixiy-adabiy asarlar tarkibiga kirishida muarrix rolini ochib berish, mumtoz poetika an'analarning tarixiy-adabiy solnomalarga kirib kelishining asar badiiyatini yuksaltirish, uning ta'sir kuchini oshirishdagi omillarini ta'kidlash ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

¹ Mirziyoyev Sh.M. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2018-yil 18-may. – №21 (4471).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari; 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 20-iyundagi PQ-3074-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistonga oid xorijdagi madaniy boylklarni tadqiq etish markazini tashkil etish to‘g‘risida”, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”, 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi va 2019-yil 20-martdagi 238-son “Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy tavalludining 210 yilligini nishonlash hamda Xiva shahrida Ogahiy ijod maktabini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi². Muayyan ijodkorning tarixiy-adabiy asar yaratish mahoratini o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalari, jumladan, Istanbul Universiteti (Turkiya), University of Washington

² Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi quyidagi manbalar asosida amalga oshirildi: www.indiana.edu, www.oaaw.ac.at, www.soas.ac.uk, www.cam.ac.uk, ox.ac.uk, www.fu-berlin.de/en/index.html, www.tsukuba.ac.jp/en, www.ivran.ru; [https://Oxford Bibliographies Online Research Guide](https://OxfordBibliographiesOnlineResearchGuide/); <https://ru.wikipedia.org/wiki/>; <https://books.google.co.uz>; academia.uz; www.ebooks.azlibnet.az/book/HCBOWku7; <https://ELTE-Eötvös-Loránd-Tudományegyetem>; www.britanica.com; www.cambridge.org; www.amazon.com; www.edu.uz; <https://www.istanbul.edu.tr/tr>; <http://kaznu.kz/ru>; britishcouncil.org; internauka.ru; micros.uz; <https://www.orientalstudies.az/ru>; www.iaas.msu.ru; www.orient.spbu.ru/ru; <http://www.orientalstudies.ru>; <https://sllc.umd.edu/persian/about>; actsudent.org; educationusa.info; americanenglish.state.gov; arzas.academy/uni/eastwest/pers; <https://www.ankara.edu.tr/tr>; <https://gazi.edu.tr>; www.twirpx.com; www.dissercat.com; <http://oriental-studies.org.ua/uk/home>; <http://zoa.dmt.tj>; <http://iza.tj/ru/institut-yazyka-litaratury-vostokovideniya-i-pismennogo-naslediya-im-rudaki>; <http://tashgiv.uz/ru/>; <http://navoiy-uni.uz/uz-k>; <http://www.samdu.uz>.

(AQSH), University of Amsterdam (Niderlandiya), University of London (Angliya), University of Peshavar (Pokiston), Toronto School of Theology (Kanada), Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti, Qozon davlat universiteti, Boshqird davlat pedagogika universiteti (Rossiya), Qozoq milliy universiteti (Qozog'iston), Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasi tarixi instituti (Ozarbayjon), O'zbekistonda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zFA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi, O'zFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti, Urganch davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti, Samarqand davlat universiteti, Buxoro davlat universitetida olib borilmoqda.

Jahon ijtimoiy fanlari tizimida Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy hayoti va ijodini o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqotlar natijasida bir qator ilmiy natijalar olingan: Munis va Ogahiy qalamiga mansub "Firdavs ul-iqbol" asarining ilmiy-tanqidiy matni tayyorlanib, nashr etilgan (New York University (AQSH); tarixiy-adabiy asar poetikasi doirasida ularning shakl va mazmun mutanosibligini ta'minlovchi asosiy vositalar bilan bog'liq masalalar asoslangan (Beijing University, XXR); so'z va uning inson ruhiyatiga ta'sir etish, badiiy va hayotiy haqiqatni uyg'unlashtirish vazifasi ochib berilgan (Sophia University; University of Tokyo, Yaponiya); tarixiy-adabiy asarlarning mumtoz adabiyotning umumiy tizimida real voqelik hamda inson ideallarini birlashtirishdagi o'rni aniqlangan (Baki Dövlət Universiteti, Ozarbayjon); o'zbek mumtoz adiblarining tarixiy-adabiy asarlar yaratishiga sabab bo'lgan davlat va jamiyat munosabatlarini muvofiqlashtirishga samarali ta'sir ko'rsatish zarurati, o'zbek adabiyotini Uyg'onish davrida erishilgan maqomga qaytarish harakati, voqelikni avlodlar zehninga ibrat sifatida yetkazish orzusi kabi omillarning o'ziga xos xususiyatlari asoslangan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti; O'zFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti).

Dunyo turkologiyasida tarixiy-adabiy asarlarni adabiyotshunoslik nigohida kompleks o'rganish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: tarixiy-adabiy asarlar poetikasining o'ziga xos xususiyatlarini keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash; muallif shaxsi va uning asariga taalluqli masalalarni ijtimoiy omillar bilan bog'liqlikda ochib berish; solnoma xarakteridagi manbalarning ilmiy-tanqidiy matnini to'la ilmiy ko'rsatkichlar asosida tavsiflash; mumtoz adabiy va tarixiy-adabiy asarlardagi badiiyat mezonlarini aniqlash.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligi va boshqa ijtimoiy fanlar silsilasida mumtoz poetika borasida ko'plab ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirilgan³. Shuningdek, Arastu, F.Gegel, D.Lixachyov, V.Vinogradov,

³ Табризий Вахид. Рисолаи Жамъи мухтасар. – Москва, 1959. – С.36.; Мусулмонкулов Р. Сажъ ва сайри тарихии он дар насри тожик. – Душанбе, 1970. – С.31.; Ханнал – Фахури. История арабской литературы: В 2 т. Т. 1. – Москва: Изд-во иностр. лит., 1959-1961. – С.36.; Жирмунский В.М. Орхонские надписи стихи или проза? // Народы Азии и Африки. – 1968. – №2. – С.74-82.; Ахметов З. К вопросу изучения теории тюркского стиха. // Советская тюркология. – 1972. – С.80-87.; Хусайний А. Бадоеъ-ус-саноеъ. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б.398.; Шайх Аҳмад Ибн Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балоға. – Тошкент: Хази́на, 1996. – Б.212.; Саримсоқов Б. Ўзбек адабиётида сажъ. – Тошкент: Фан, 1978.; Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси. – Тошкент: ЎзМЭ, 2008. – Б.425.; Ёрматов М.Т. Ўзбек

A.Potebnya, V.Xalizev, V.Xrapchenko va boshqa olimlarning izlanishlari shu yoʻnalishda amalga oshirilgan keyingi tadqiqotlar uchun asos vazifasini oʻtagan.

Dunyo adabiyotshunosligida Ogahiyning tarixiy-adabiy asarlaridan Y.Bregel⁴, V.V.Bartold, P.P.Ivanov, Y.Gʻ.Gʻulomovlar oʻz tadqiqotlarida unumli foydalanishgan⁵.

Oʻzbek adabiyotshunosligida Muhammad Rizo Ogahiy shaxsi va ijodiga ilk munosabatlarni uning zamondoshlari asarlarida uchratamiz⁶. XX asr adabiyotshunosligida esa Ogahiy ijodiga ilk marta Olim Sharofiddinov tomonidan tuzilgan “Oʻzbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi”ga shoirning toʻrtta gʻazali⁷ va 1948-yilda nashr qilingan “Oʻzbek poeziyasining antologiyasi”ga shoir haqida qisqacha biografik maʼlumot, gʻazallari va tuyuqlaridan namunalar kiritilishi bilan eʼtibor qaratildi⁸. Ogahiyshunoslik rivojida R.Majidiyning xizmatlarini alohida taʼkidlash lozim. Rahmat Majidiy Ogahiy lirikasini ilmiy tahlil qilar ekan, Xorazm adabiy muhiti va undagi adabiy taʼsir masalalariga ham alohida eʼtibor qaratdi⁹. Ogahiyshunoslikning bugungi darajadagi rivojida S.Dolimov¹⁰ olib borgan ilmiy tadqiqotlar ham juda ahamiyatli, jumladan, olimning Gʻulom Karimov bilan hamkorlikda nashr qildirgan Ogahiy asarlarining olti jildligi buyuk mutafakkir asarlarini nafaqat adabiyotshunoslik, shu bilan birga, ijtimoiy fanlarning turli sathlari doirasida oʻrganish imkoniyatlarini kengaytirdi¹¹. Shu ishlar samarasi oʻlaroq keyinchalik ayni mavzu doirasida bir qancha tadqiqotlar amalga oshirildi¹².

халқ қаҳрамонлик эпоси бадиияти. – Тошкент: Фан, 1994.; Исоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Oʻzbekiston, 2014. – Б.128.; Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.124.; Кожин В.В. Как пишут стихи о законах поэтического творчества. – Москва: Просвещение, 1970. – С.240.; Маматкулов М. Қадимги туркий адабиётда жанрлар поэтикаси: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – Б.25.; Мирзаев С. Ўзбек адабиётида қофия. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1972. – №5. – Б.82-90.; Мирхайдаров Х. Рифма и индивидуальный стиль. – Ташкент, 1972. – С.24.; Мирхайдаров Х. Яна қофия ва шеър системаси ҳақида. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1976. – №2. – Б.60-67.; Носиров О. Аруз ва ўзбек халқ оғзаки ижоди. // Халқ ижоди хазинаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1986. – Б.4-88.; Раҳмонов А. Қофия тўғрисида. // Адабий мерос. – Тошкент, 1981. – №2. – Б.20-25.; Раҳмонов Б. Халқ эпик шеърининг ўзига хос хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1996. – №2. – Б.26-30.; Саримсоков Б. Қофия ва шеър системаси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1975. – №6. – Б.36-41.; Тўйчиев У. А.Навоий қофия ҳақида. // Адабий мерос. – Тошкент, 1982. – №4. – Б.77-84.; Тўйчиев У. Ўзбек шеър тузилиши. // Адабиёт назарияси. II том. – Тошкент: Фан, 1979. – Б.337-397.; Тўйчиев У. Қадимги туркий шеър тузилиши. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1986. – №1.; Тўйчиев У. Қофия ва шеър системаси. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1975. – №4. – Б.36-40.; Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Тошкент: Фан, 2006. – Б.286.

⁴ Bregel Y. Tribal tradition and dynastic history: The early rulers of the Qongrats according to Munis // In: Asian and African Studies. 1982.16/3. – Pp.381-385, 392-397.; Munis Shir Muhammad Mirab and Agahi Muhammad Riza Mirab, Firdaws al-iqbāl. – P.543.

⁵ Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. // Сочинения. Т. II. – Москва, 1963. – С.1020.; Shu muallif. Культура мусульманства. // Сочинения. Т. IV. – Москва, 1966.; Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии (XVI середина XIX в.). – Москва, 1958.; O'sha muallif. Архив хивинских ханов XIX в. – Ленинград, 1940.; Shu muallif. Материалы к изучению истории каракалпаков. // Каракалпакия. Т. II. – Л., 1934.; Гулямов Й.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. – Ташкент: Фан, 1957. – 324 с.

⁶ Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий. // Мерос туркуми. – Тошкент: Камалак, 1991. – Б.175-265.; Девони Мавлоно Комил маа таворихи шоҳони Хоразм. Лит. Г.Яковлева. – Тошкент, 1327 хиж. – Б.26.

⁷ Ўзбек адабиёти тарихи хрестоматияси. II жилд. – Тошкент: Ўздавнашр, 1959. – Б.651.

⁸ Ўзбек поэзиясининг антологияси. – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1948. – Б.454.

⁹ Мажидий Р. Огаҳий лирикаси: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1961. – 22 б.

¹⁰ Долимов С. Огаҳийнинг ҳаёти ва ижоди: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1963. – 21 б.

¹¹ Огаҳий. Асарлар. Олти жилдлик. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971-1980.

¹² Мажидий Р. Огаҳий лирикаси: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1961.; Долимов С. Огаҳийнинг ҳаёти ва ижоди: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1963.; Комилов Н. Муҳаммадризо Огаҳийнинг таржимонлик

O'zbek ogahiyshunosligi shakllanishi va takomilida V.Abdullayev, G'.Karimov, S.Dolimov, R.Majidiy, A.Hayitmetov, A.Abdug'afurov, B.Valixo'jayev, N.Komilov, F.G'anixo'jayev, A.Ahmedov, I.Haqqulov, N.Jabborov, H.Boltaboyev, N.Shodmonov, N.Jumaxo'ja, A.O'rozboyev, D.G'ayipov va boshqa olimlarning ham o'rni katta. Jumladan, N.Jumaxo'jayev, I.Adizova kabi adabiyotshunoslarning ishlarida XIX asr Xorazm adabiy muhiti vakillari qatorida Ogahiy merosiga ham katta e'tibor qaratilgan¹³.

M.Yo'ldoshev o'zining "Xiva xonligida feodal yer egaligi" kitobida Munis va Ogahiyning tarixiy-adabiy asarlaridan keng foydalangan, ulardan ayrim parchalarni qo'lyozmalardan bevosita tabdil qilgan holda keltiradi¹⁴. Q.Munirov XIX asr va XX asr boshlaridagi Xiva xonligidagi tarixnavislik masalasini maxsus tadqiq qilish bilan birga, Munis va Ogahiyning hayoti va ijodiga oid maxsus risola¹⁵ ham yozgan, N.Toshev esa "Jome'u-l-voqeoti sultoniy" asari yuzasidan tadqiqot olib borgan¹⁶.

Ogahiyning tarixiy-adabiy asarlardagi lirik janrlar bo'yicha muhim kuzatishlar mavjud. Q.Sultonova Ogahiyning "Gulshani davlat" asarini adabiy manba sifatida tadqiq qilgan¹⁷. "Zubdatu-t-tavorix" asari tadqiqi va nashr qilish ishlari hamda Ogahiyning muarrixlik faoliyati tadqiqi bilan filologiya fanlari doktori, professor N.Jabborov¹⁸ shug'ullangan bo'lsa, "Shohidu-l-

махорати: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1970.; Сафарбоев М. Огаҳийнинг ижтимоий-сиёсий ва фалсафий қарашлари: Фалс. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1993.; Ганихўжаев Ф. Огаҳийнинг "Таъвизу-лошиқин" девони ва унинг илмий-танқидий матни: Филол. фан. докт. ...дисс. – Тошкент, 1998.; Пиримқулов А. Огаҳий маснавийлари: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1998.; Матякубова М. Огаҳий ижодида кичик шеърӣ жанрлар: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2000.; Султонова Қ. Огаҳийнинг "Гулшани давлат" асари адабий манба сифатида: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2000.; Холлиева Г. Огаҳий мусамматлари: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2000.; Матякубова Т. Огаҳий шеърӣятида анъанавӣ образлар талқини: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2001.; Ўрозбоев А. Огаҳийнинг "Риёз уд-давлат" асарида ижтимоий-сиёсий лексика: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2009.; Шодмонов Н. "Шоҳиду-ликбол"нинг ўзбек бадиӣй-тарихӣй насри тараққӣидаги ўрни, манбалари ва матний тадқиқи: Филол. фан. докт. ...дисс. – Тошкент, 2009.; Исмаилов И. Огаҳийнинг форсий мероси. Филол. фан. номз. ...дисс. – Самарқанд, 2010.; Аҳмедова Г. Огаҳийнинг адабий-танқидӣй қарашлари: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2011.; Ғайипов Д.Қ. Огаҳийнинг бадиӣй маҳорати: Филол. фан. докт. ...дисс. – Тошкент, 2021.; Назирова Ҳ.Б. Қўнғиротлар сулоласи тарихнавислигида Муҳаммадризо Огаҳийнинг "Зубдат ут-таворих" асари: Тарих фан. б. фалс. докт. ...дисс. – Тошкент, 2022.

¹³ Жумахўжаев Н., Адизова И. Сўздин бақолироқ ёдгор йўқтур. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. – Б.53.; Жумахўжа Н. Огоҳнома. // "Феруз – маданият ва санъат ҳомийси" мақолалар тўплами. – Тошкент: Фан, 1995. – Б.40-49.; Shu muallif. Огаҳӣй – устодим менинг. // "Феруз – маданият ва санъат ҳомийси" мақолалар тўплами. – Тошкент: Фан, 1995. – Б.49-59.

¹⁴ Йўлдошев М. Хива хонлигида феодал ер эгаллиги. – Тошкент: Ўздавнашр, 1957. – 363 б.

¹⁵ Муниров Қ. Мунис, Огаҳӣй ва Баёнийларнинг тарихӣй асарлари. – Тошкент: ЎзФАН, 1961. – 172 б.; Shu muallif. Хоразмда тарихнавислик. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002. – 191 б.

¹⁶ Muhammad Riza Mirab Agahi. Jami' al-vaqi'at-i sultani / Edited in the original Central Asian Turki with an Introduction and Notes by Nouryaghdi Tashev. – Samarqand-Tashkent: Mega Basim, 2012.

¹⁷ Султонова Қ. Огаҳийнинг "Гулшани давлат" асари адабий манба сифатида: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2000. – 138 б.; Султонова Қ. "Гулшани давлат" асарида сажъ. // Хоразм Маъмун академиясининг ахборотномаси. – Хива, 2010. – №3-4. – Б.41-50.

¹⁸ Муҳаммад Ризо Эрнӣёзбек ўғли Огаҳӣй. Зубдату-т-таворих. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009.; Жабборов Н. Илм андоғ ганжи нофиъдур... // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 2002. – №3. – Б.150-151.; Shu muallif. Огаҳийнинг огоҳлик сири. // Tafakkur. – Тошкент, 2009. – №2. – Б.58-68.; Shu muallif. "Фирдавсу-л-икбол"нинг адабий-эстетик қиймати. // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 2010. – №5. – Б.150-160.; Shu muallif. Огаҳийнинг адабий-эстетик ва маънавий-ахлоқий мезони. // Огаҳӣй – шоир, муаррих, таржимон. – Урганч, 2019. – Б.28-36.; Shu muallif. Ogahiy "Zubdatu-t-tavorix" asarining qo'lyozmalari va adabiy manba sifatidagi qimmat. // Oltin bitiglar. – Тошкент, 2019. – №3. – Б.3-26.; Shu muallif. The manuscripts of the novel "Zubdatu-t-tavorikh" by Agakhi and its value as a source of literature. // Journal of Critical Reviews, Vol 7, Issue 6, 2020. – Pp.220-226.

iqbol” asari bo’yicha tadqiqotlar olib borgan filologiya fanlari doktori, professor N.Shodmonov asarning ilmiy-tanqidiy matnini Rossiya FA Sankt-Peterburg Sharq qo’lyozmalari institutida № S-572¹⁹ inventar raqami bilan saqlanayotgan yagona nusxadagi manbaning fotokopiyasi asosida nashrga tayyorladi²⁰. A.O‘rozboyev Ogahiy tarixiy-adabiy asarlari leksikasini maxsus tadqiq qilgan²¹. I.Ismailov “Jome’ ul-voqeoti sultoniy” asarini adabiy manba sifatida o‘rgangan²². Ogahiyning tarixiy-adabiy asarlari tahliliga doir fikrlar S.Dolimov²³, S.Ro‘zimboyev, A.Ahmedov²⁴, Z.Do‘simov²⁵, H.Dadaboyev²⁶ ishlarida ham kuzatiladi. Shunday bo’lsa ham, o‘zbek adabiyotshunosligida Ogahiy tarixiy-adabiy asarlari badiiyatini yaxlit monografik tarzda o‘rganishga ehtiyoj mavjud edi. Mazkur tadqiqot shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Xorazm Ma’mun akademiasining “O‘zbek filologiyasining istiqboldagi masalalari” mavzusidagi istiqbolli ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiyning tarixiy-adabiy asarlari badiiyatining o‘ziga xos xususiyatlarini poetik, tarixiy, qiyosiy-tipologik jihatdan ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tarixiy-adabiy asarlar yaratishda Ogahiy uslubini shakllantiruvchi omillarini tadqiq qilish hamda bunday asarlar badiiyatini yuzaga keltirgan sabablarni ko‘rsatib berish;

tarixiy-adabiy asarlarda timsollar silsilasi va ularning badiiy-g‘oyaviy vazifalarini ko‘rsatib berish;

tarixiy-adabiy asarlarda qo‘llanilgan saj‘ning rolini ochib berish hamda ijodkor tomonidan istifoda etilgan saj‘lanishlarni tasniflash;

tarixiy-adabiy asarlardagi iqtibosning o‘rnini ko‘rsatish;

Ogahiy tarixiy-adabiy solnomalaridagi lirik janrlar tasnifini keltirish;

tarixiy-adabiy asarlarda badiiy san’atlardan foydalanish mahoratini yoritish;

Ogahiy tarixiy-adabiy solnomalarida aruz vaznining o‘rnini yoritib berish;

solnomalar nazmiy qismidagi qofiya va u bilan bog‘liq san’atlarni tahlil etish.

¹⁹ Огаҳий асарларининг тавсифи (Каталог) // Тузувчи: Ф.Ғанихўжаев. – Тошкент: ЎзР ФА ҚИ, 1986. – Б.31.

²⁰ Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Шоҳиду-л-икбол. – Тошкент: Мухаррир, 2009. – 335 б.

²¹ Ўрозбоев А. Огаҳийнинг тарихий асарлари лексикаси: Филол. фан. докт. дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 72 б.

²² Исмаилов И. Огаҳийнинг “Жомеъ ул-вокеоти султоний” асарида бадий санъатлар ва фольклор анъаналарининг қўлланилиши: Филол. магистри академик даражасини олиш учун тақдим этилган дисс. – УрДУ АРМ, 2004. – 84 б.; Shu muallif. «Жомеъ ул-вокеоти султоний» асарида Қуръон оятлари. // Филологическое исследование. – Урганч: УрДУ нашри, 2007. – №15. – С.18-24.; Shu muallif. “Жомеъ ул-вокеоти султоний” асарида сажъ санъатининг қўлланилиши. // Илм сарчашмалари. – Урганч, 2007. – №2. – Б.38-43.

²³ Долимов С. Огаҳий поэзиясида омоним ва синоним сўзлар. // Ўқитувчилар газетаси. – Тошкент, 1957. – №51.

²⁴ Рўзимбоев С., Аҳмедов А. “Фирдавсу-л-икбол” даги адабий жанрлар ҳақида. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2009. – №6. – Б.19-25.

²⁵ Дўсимов З. Огаҳийнинг “Зубдату-т-таворих” асарининг лексик-грамматик хусусиятлари ҳақида. // Огаҳий абадияти. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – Б.37-41.

²⁶ Дадабоев Ҳ. Огаҳий тарихий асарларидаги ижтимоий-сиёсий терминлар тизими хусусида. // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари (Илмий мақолалар тўплами). – №3. – Тошкент, 2009. – Б.21-24.

Tadqiqotning obyekti sifatida “Firdavsu-l-iqbol” asarining Ogahiyga mansub qismi hamda muarrixning bevosita o‘zi tomonidan yaratilgan “Riyozi-d-davla”, “Zubdatu-t-tavorix”, “Jome‘u-l-voqeoti sultoniyy”, “Gulshani davlat”, “Shohidu-l-iqbol” asarlari²⁷ olingan.

Tadqiqotning predmetini Ogahiy tarixiy-adabiy asarlaridagi mumtoz saj‘lanish holatlari, iqtiboslar, o‘xshatish va sifatlashlar, lirik janrlar va ularning badiiyati, vazni, qofiya masalalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analitik, matn talqini, qiyosiy-tipologik, tarixiy, badiiy-estetik, psixologik, germeneytik, statistik va kontekstual tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Ogahiy tarixnavislik uslubining muarrix tarixiy asarlarigacha bo‘lgan manbalar bilan qiyosi ungacha bo‘lgan turkiy tarixnavislik an‘analarini qay darajada rivojlantirgani, o‘zigacha bo‘lgan davrdagi muarrixlar ishini hech bir jihatdan aynan takrorlamagani, balki poetik takomilga yetkazgani dalillangan;

“Firdavsu-l-iqbol”, “Riyozi-d-davla”, “Zubdatu-t-tavorix” asarlari orqali ijodkor tarixiy-adabiy asarlari badiiyatini oshirgan sabablar ularni davrdosh asarlarga qiyoslash, muarrix maqsadini amalga oshirishga qay darajada xizmat qilishi, timsollar silsilasiga muarrix iste’dodi hamda shaxsiyatining noyob qirralarini namoyon qiluvchi bir tizim sifatida yondashilgani hamda ularning tarixiy-adabiy asarning jamiyat va davlat muammolari yechimidagi o‘rni va badiiy-g‘oyaviy vazifalari ochib berilgan;

“Jome‘u-l-voqeoti sultoniyy”, “Gulshani davlat”, “Shohidu-l-iqbol” asarlari orqali tarixiy-adabiy asarlarda saj‘ning mumtoz namunalari aniqlanib, bu san‘atning o‘quvchi zehniga hissiy-ruhiy ta’siri, badiiy vositalarning inson ma’naviy qiyofasini saqlab qolishdek muhim estetik vazifasi hamda muarrix va tarix ixlosmandi o‘rtasida ruhiy muloqotda maxsus vosita sifatidagi roli yoritilgan;

Ogahiy tarixiy-adabiy solnomalaridagi masnaviy, g‘azal, qit‘a, ruboiy, ta’rix, fard, marsiya, qasida, munajat kabi lirik janrlar ishtiroki tasodifiy bo‘lmay, muayyan qonuniyatlar va tizim asosida voqelangani mazkur janrlarning badiiyati va g‘oyaviy tahlil orqali asoslangan;

Ogahiy tarixiy-adabiy solnomalarida keltirilgan lirik janrlarning nazmiy asar mazmuni, mavzusi, ko‘zlangan maqsadiga mos tarzda shakllangan vaznlari aniqlanib, she’rlarda aynan biror bahrning qo‘llanilish sabablari hamda qofiya san‘atlari muarrix badiiy mahorati qirralarini namoyon qiluvchi jihat sifatida ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

²⁷ Shir Muhammad Mirab Munis and Myhammad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm / Edited by Yuri Bregel. T.J.Brill. – Leiden–New York–Kobenhavn–Koln, 1988. Ishda FI qisqartmasi bilan berildi; رياض الدولة O‘zR FA Sharqshunoslik instituti. 5364 / II. 246^a-364^a varaqlar. Ishda RD qisqartmasi bilan berildi; زبدة التواريخ O‘zR FA Sharqshunoslik instituti. 821 / III. 386^a-435^a varaqlar. Ishda ZT qisqartmasi bilan berildi; جامع الواقعات سلطانى O‘zR FA Sharqshunoslik instituti. 9786. Ishda JVS qisqartmasi bilan berildi; گلشن دولت O‘z RFA Sharqshunoslik instituti, №7572. Ishda GD qisqartmasi bilan berildi; شاهد الاقبال Sankt-Peterburgda saqlanayotgan qo‘lyozmaning fotonusxasi / O‘zR FA Sharqshunoslik instituti 70/1, 70/2. Ishda SHI qisqartmasi bilan berildi.

muarrixga zamondosh va zamindosh ijodkorlarning ayni bir mavzudagi asarlariga qiyosan Ogahiy tarixnavislik uslubining shakllanish omillari aniqlangan;

ijodkor-мyappиx tarixiy-adabiy asarlari badiiyatini shakllantirgan sabablar va timsollar silsilasi alohida tizimni tashkil qilishi o'rganish obyekti sifatida tanlangan manbalardan olingan mikromatnlar orqali dalillangan;

tarixiy-adabiy asarlarda Ogahiyning mumtoz badiiy san'atlardan foydalanish mahorati yoritilib, bu san'atlarning yuzaga kelishi hamda asosiy vazifalari ochib berilgan;

tarixiy-adabiy asarlardagi Qur'on oyatlari va hadisi shariflar orqali keltirilgan iqtibos san'ati, shuningdek, nasriy o'rinlardagi epitet hamda o'xshatishlarning badiiy asar yaxlitligini ta'minlashdagi ahamiyati yoritilgan;

Ogahiy tarixiy-adabiy solnomalaridagi lirik janrlar tizimlashtirilgan hamda ularda qo'llanilgan vazn, qofiya, radiflarning ijodkor badiiy tafakkuri va o'ziga xos mahorati mahsuli ekanligi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilgani, chiqarilgan xulosalarning aniqligi, olib borilgan tahlillar analitik, matn talqini, qiyosiy-tipologik, tarixiy, badiiy-estetik, psixologik, germeneytik, statistik va kontekstual tahlil usullari orqali asoslanganligi, ishonchli nazariy manbalardan foydalanilganligi, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Ogahiy badiiy mahoratining adabiy-estetik omillarini aniqlash, shoir she'riyatining janrlar poetikasi, obraz yaratish mahorati hamda aruz san'atining tarixiy-adabiy asarlardagi sir-sinoatini yoritish, muallifning badiiy san'atlar, qofiya va radifdan foydalanish mahoratini tadqiq qilishda nazariy asos vazifasini o'tashi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya xulosalari va tavsiyalaridan oliy ta'lim muassasalari uchun "O'zbek adabiyoti tarixi", "Mumtoz poetika asoslari", "Ogahiyning poetik mahorati" kabi darslik va qo'llanmalar yaratish, ma'ruza, amaliy hamda seminar mashg'ulotlari mazmunini takomillashtirish, fakultativ darslar va maxsus kurslar ishlab chiqish, o'zbek va fors mumtoz adabiyotlari tarixi, jahon adabiyoti kabi fanlar mazmunini nazariy xulosalar bilan boyitishda ko'rinadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ogahiyning tarixiy-adabiy asarlari poetikasi, muarrixning badiiy go'zallik yaratish mahoratini tadqiq qilish jarayonida qo'lga kiritilgan nazariy xulosalar va ilmiy natijalar asosida:

ishning Ogahiy tarixnavislik uslubining muarrix tarixiy asarlarigacha bo'lgan manbalar bilan qiyosi ungacha bo'lgan turkiy tarixnavislik an'alarini qay darajada rivojlantirgani, o'zigacha bo'lgan davrdagi muarrixlar ishini hech bir jihatdan aynan takrorlamagani, balki poetik takomilga yetkazganiga oid natijalaridan O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2017-2020-yillarda bajarilgan FA-F1-005 raqamli "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental ilmiy loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi

FA Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 29-martdagi 111/1-son ma‘lumotnomasi). Natijada tarixiy-adabiy asarlarning o‘ziga xos xususiyatlari, undagi badiiy-tasviriy vositalarning asar g‘oyasini ochishdagi o‘rni va ahamiyati, asar poetikasida muhim o‘rin tutgan barcha adabiy unsurlar, ijodkorning xos uslubi kabi qonuniyatlar haqida batafsil ma‘lumot olish imkonini bergan hamda ilmiy nazariyalarning mukammallashuvi ta‘minlangan;

“Firdavsu-l-iqbol”, “Riyozi-d-davla”, “Zubdatu-t-tavorix” asarlari orqali ijodkor tarixiy-adabiy asarlari badiiyatini oshirgan sabablar ularni davrdosh asarlarga qiyoslash, muarrix maqsadini amalga oshirishga qay darajada xizmat qilishi, timsollar silsilasiga muarrix iste’dodi ham shaxsiyatining noyob qirralarini namoyon qiluvchi bir tizim sifatida yondashilgani, ularning tarixiy-adabiy asarning jamiyat va davlat muammolari yechimidagi o‘rni hamda badiiy-g‘oyaviy vazifalari haqidagi xulosalardan Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamoat fondi eksponatlarini boyitishida foydalanilgan (Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamoat fondining 2022-yil 13-maydagi 01-22-raqamli ma‘lumotnomasi). Natijada tarixiy asarni tarixiy-adabiy asarga aylantiruvchi vositalar tizimi haqida tasavvurlar kengayishiga xizmat qilgan;

“Jome‘u-l-voqeoti sultoni”, “Gulshani davlat”, “Shohidu-l-iqbol” asarlari orqali tarixiy-adabiy asarlarda sa‘ning mumtoz namunalari aniqlanib, bu san‘atning o‘quvchi zehniga hissiy-ruhiy ta’siri, badiiy vositalarning inson ma‘naviy qiyofasini saqlab qolishdek muhim estetik vazifasi hamda muarrix va tarix ixlosmandi o‘rtasida ruhiy muloqotda maxsus vosita sifatidagi rolini dalillovchi xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20- martdagi “Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy tavalludining 210 yilligini nishonlash hamda Xiva shahrida Ogahiy ijod maktabini tashkil etish to‘g‘risida”gi 238-son Qarori 3-bandiga muvofiq amalga oshirilgan Ogahiy “Asarlar” silsilasining 3-, 4-, 5-, 6-jildlarini nashrga tayyorlash va chop etishda foydalanilgan (Xorazm Ma‘mun akademiyasining 2022-yil 16-maydagi 80/2-22-raqamli ma‘lumotnomasi). Natijada tarixiy-adabiy asarlarda badiiy san‘atlardan foydalanish mahoratini muarrixning xos uslubi va maqsadi, o‘zining jamiyat oldidagi mas‘ullik hissi bilan bog‘langan holda yoritish imkoni yuzaga kelgan;

Ogahiy tarixiy-adabiy solnomalaridagi masnaviy, g‘azal, qit‘a, ruboiy, ta’rix, fard, marsiya, qasida, munojot kabi lirik janrlar ishtiroki tasodifiy bo‘lmay, muayyan qonuniyatlar va tizim asosida voqelanganini ochib beruvchi, yuqorida sanalgan janrlarning badiiyati va g‘oyaviy tahliliga oid natijalardan Xorazm viloyati teleradiokompaniyasining “Assalom, Xorazm” ko‘rsatuvida foydalanilgan (Xorazm viloyati teleradiokompaniyasining 2022-yil 15-maydagi 597-son ma‘lumotnomasi). Natijada Ogahiy badiiy mahorati yuksalishida adabiy an‘ananing ta’siri, shoir ijodining o‘ziga xosligi, Ogahiy qo‘llagan she’riy san‘atlardagi mahorat masalalarini yanada kengroq yoritish imkoni yaratilgan;

Ogahiy tarixiy-adabiy solnomalarida keltirilgan lirik janrlarning nazmiy asar mazmuni, mavzusi, ko‘zlangan maqsadiga mos tarzda shakllangan vaznlari aniqlanib, mazkur she’riy parchada aynan biror bahrning qo‘llanilish sabablari hamda solnomalardagi lirik janrlardagi qofiya san‘atlari muarrix badiiy mahorati

qirralarini namoyon qiluvchi jihat ekanligi dalillangan xulosalardan Xorazm viloyati teleradiokompaniyasining “Kitobxon vaqti” ko‘rsatuvida foydalanilgan (Xorazm viloyati teleradiokompaniyasining 2022-yil 16-maydagi 598-son ma’lumotnomasi). Natijada Ogahiyning o‘zigacha bo‘lgan turkiy tarixnavislik an’alarini qay darajada rivojlantirigani, o‘ziga xos yangiliklari, asar badiiyatiga bo‘lgan alohida e’tibori kabilarni keng ommaga namoyish qilinishiga imkon yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjuman, jumladan, 4 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-nazariy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha 34 ta ilmiy ish e’lon qilingan. Shulardan 2 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 14 ta maqola, jumladan, 10 tasi respublika hamda 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, IV bob, X fasl, xotima va adabiyotlar ro‘yxatidan tarkib topgan bo‘lib, ishning umumiy hajmi 259 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqot ishining **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprobatyasi, e’lon qilingan ishlar va tadqiqot tuzilishi ko‘rsatilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Ogahiy tarixiy-adabiy asarlarining uslubi va ifoda tarzi**” deb nomlangan. Bobda ijodkorda muarrixlik mahoratining takomil topishi va tarixiy-adabiy asarlari badiiyatining shakllanish sabablari yoritib berilgan. Birinchi faslda “**Tarixnavislik uslubining shakllanish omillari**” atroflicha tahlil qilingan. Jumladan, Ogahiy tarixnavislik uslubining shakllanish omillari sifatida birinchi navbatda quyidagilar ko‘zga tashlandi:

1.1.1. Solnomalarning milliy va umumbashariy xarakteri tahlili. Ogahiy tarixiy-adabiy asarlari mutolaasi davomida ularning bu qadar yuksak badiiy saviya, yaqqol gumanizm kabi qator fazilatlariga ega bo‘lishi sabablari sifatida, eng avvalo, muarrixning solnomalarning milliy va umumbashariy ahamiyatini chuqur anglashi natijasi, deb baholash o‘rinli, degan to‘xtamga kelganmiz. Muarrix tarixning insoniyat hayotidagi ahamiyati xususida muxtasar tarzda quyidagi fikrlarni bayon qilgan:

*“Xusho, ul tavorixi sohib sharaf,
Ki bor anda axbori ahli salaf.*

*Savodi aning ko'zni ravshan qilur,
Ko'ngulni iboroti gulshan qilur ...*²⁸ [RD, 249^a].

Ushbu baytlarning o'zi ham Ogahiyning tarixnavislikning milliy va umumbashariy ahamiyatini naqadar chuqur anglaganidan darak beradi. Sharaf egasi bo'lgan tarix ilmida o'tgan ajdodlardan xabarlar mujassam. Tarix bitilgan satrlar qoraligi ko'zni ravshan qiladi. Bunda muarrix *savod* so'zining ham "qoralik", ham "anglash", "uqish", "idrok qilish" ma'nolarini nazarda tutgan. Demak, ushbu bayt qa'riga tarixni anglash ikki bosqich: o'qish va uqishdan iborat ekani ham singib ketgan.

Tarix ilmining eng birinchi va eng muhim vazifasi, shu bilan birga, ahamiyati ham insoniyatga har bir narsa haqida muhim xulosa chiqarish, ibrat olish imkoniyatini berishidir. Ogahiy esa bunga hamohang fikrlarini "*tavorixi oliyshamorixkim, azminayi sobiqa avzoye'ining holoti va salotini moziya ahvolining hikoyatig'a mushtamil*" [RD, 249^a] deya ifodalaydi. Muarrix bu bilan "azminayi sobiqa holoti" (o'tgan zamonlar ahvoli)ni bilgan kishi o'z zamonasidagi vaziyatga xolis baho bera oladi hamda "salotini moziya ahvoli"dan boxabar davr hukmdorigina o'z istiqbollarini to'g'ri belgilay oladi va shunga munosib ishlarni amalga oshiradi, degan fikrlarni ilgari suradi. Ogahiy yashagan va ijod qilgan muhit vakillari – uning ustoz va izdoshlarining tarix haqida mulohazalarini ko'zdan kechirish ham masalaga bir qadar oydinlik kiritadi, degan umiddamiz.

Ogahiyning munosib izdoshlaridan bo'lgan Muhammad Yusuf Bayoniyning quyidagi fikrlari Xorazm tarixnavislik maktabi xususiyatlari, ayniqsa, tarixiy-adabiy asarlar badiiyati haqidagi mulohazalarimizga fakt bo'ladi oladi, nazarimizda: "*Bas, ogohdil ma'nishunoslarning zamiri mehriqtiboslari bo'lsunkim, Eltuzarxonning nadimlari jumlasidin Munis mirob degan bir aziz bor erdikim, o'z zamonida jahon afozillaridin ko'yi sibqatni elitgan, nazmda bir shoiri xushbayon va nasrda ham bir fasihi suxandon va umaro qatorlarida mirobliq mansabi bila sarafroz va xonning majlisi tarix kitoblaridin nuktapardoz kishi erdi. Bir kun xon anga debdurkim, Xorazm viloyatida o'tgan voqe'otni kitobat qaydig'a kirguzub, Xorazm xonlarining hasablarin va silsilayi nasablarin anda mundarij etsangiz, har ikkovimizdin olamda bir yodgor bo'lur erdi va bu bobda o'zungiz aytib erdingiz...*"²⁹

Yuqoridagi parchadan bir necha e'tiborli jihatlarini ilg'aymiz: Birinchidan, zamona xonlari muarrixlarga g'oyat katta hurmat bilan qarashgan. Bayoniy bayonida Eltuzarxon Munisga g'oyat donishmand, ilmparvar shaxs sifatida murojaat qiladi, o'z nomini abadiylashtirish muarrix mehnatiga bog'liqligini ham yaxshi anglaydi. Muarrixlar esa hamisha hukmdorlarga o'z nomlari avlodlar xotirasida qanday qolishi va qiyofalari qanday gavdalanishi tarixnavislarga ko'p jihatdan bog'liq ekanini uqtirib kelganlar. Jumladan, Ogahiy ham shunday yozadi: "*Har podshohi sohibiqtidorekim, kishvarkusholig' orzu qilib, arsayi olamg'a ot surub, yaxshi ot chiqarmoq istasa, anga ikki ishni ixtiyor qilmoq vojibu lozimdur: biri tig'zan-u mardafkan shuja'o tarbiyati va biri xushsuxan-u qalamzan shuaro*

²⁸ She'riy parchalar asosiy mazmunni anglatadigan darajagacha qisqartirildi.

²⁹ محمد يوسف بياني. خوارزم تاريخی. ʻʻʻ Р Ф А Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди. №7421. – Б.4^a-5^b.

taqviyatidur” [JVS, 10^b]. Shu o‘rinda tarixnavislar juda katta siyosiy vazifa – hukmdorlarning davlatga egalik huquqlarini qonuniylashtirish, targ‘ib qilishni bajarganlar. H.Nazirova³⁰ yozganidek, Eltuzarxon ajdodlarining tarixini “nazm va nasr ila jahonga gavhar sochish” bilan zamona “Shohnoma”sini turkiy tilda yozishini Shermuhammad ibn Avazbiy mirob Munisga (1192–1244/1778–1829) buyurgan. U “Firdavs ul-iqbol” asarida qo‘ng‘irotlar sulolasining shajaraviy daraxtini afsonaviy Qaljidayxondan sulolaning asoschisi Chingizxon xonadoniga mansub O‘mboy inoq bilan bog‘laydigan faktlarni keltiradi va tarixnavislik aspektidan yangi sulola hokimiyatini legitimlashtiradi”³¹. Ushbu usul qo‘ng‘irotlargacha ham qo‘llanilgan va ularning tarixiy-adabiy asarlariga ham xosdir.

Ikkinchidan, bu o‘rinda Bayoniy hukmdorlarning ideal qiyofasini yaratishga intilgan, degan andishaga boradigan bo‘lsak, iqtibos olingan “Xorazm tarixi” asari 1923-yilda yaratilgan bo‘lib, xonlik tizimi ag‘darilgan edi. Shu asarning o‘zida Bayoniy: *“emdi orqoyinliq bila bu kitobni avvaldin boshlab, xushomad so‘zlarni tashlab mustabidlarning xavflaridin tilga keltura olmag‘an so‘zlarni tahrir qaydig‘a rostlig‘ bila kirguzurman. Tarixning bir sharti budurkim, muarrix tarafdorliq etmay, so‘zni rostlig‘ bila bayon etmagi kerakdur”*³², – deydi. Ushbu mulohazalarni tahlil qiladigan bo‘lsak, Bayoniy nazarda tutgan “orqoyinlik” (erkinlik, bemaollik) Ogahiyda bo‘lmagan. Shuning uchun unda “xushomad so‘zlarni tashlash” imkonini yo‘q edi. Shu bilan birga, Ogahiy shunchaki bir maddoh munshiy emas, sobit mulohazali, mutafakkir muarrix edi. Demak, Ogahiy tarixiy-adabiy asarlari badiiyati bu qadar yuksak bo‘lishida Bayoniy nazarda tutgan vaziyatning bir qadar o‘rni bor. Chunki ayrim holatlarda ochiq matn bilan tasvirlash imkonsiz voqealarni muarrix xos odamlar anglaydigan darajada nozik ifodalar bilan berishga harakat qilgan.

1.1.2. Solnomanavislik: maqsad va salohiyat uyg‘unligi. Ogahiy tarixiy-adabiy asarlari badiiyatini shakllantirgan omillar haqida gap ketar ekan, yana Muhammad Yusuf Bayoniyni “Xorazm tarixi” asaridagi quyidagi satrlar e‘tiborimizni tortadi: *“(Eltuzarxon so‘zlaridan keyin) Munis mirob filhol Xorazm tarixini boshlab, Odam alayhisssalomdin so‘z bunyod etib, Sherg‘ozixonning zamonig‘a yetkurganda Eltuzarxon Jayhung‘a g‘arq bo‘lub, o‘rnig‘a birodari Muhammad Rahimbek xon bo‘ldi. Va ul ham bu tarixni yozmoqg‘a amr etdi. Munis dubora Sherg‘ozixonidan so‘z boshlab, Muhammad Rahimxonning julusining sakkizlanji yili erdi, andin so‘ng Muhammad Rahimxon Munisg‘a “Ravzatu-s-safo” tarjimasin buyurub, Xorazm tarixi (FI – I.I.) matruk bo‘lub qoldi”*³³.

Xorazm muarrixlari, xususan, Munis va Ogahiy uchun tarixiy-adabiy asarlar inshosidan ko‘zlangan asosiy maqsadlardan biri tarixiy voqealar bayoni fonida

³⁰ Назирова Х. Қўғирутлар сулоласи тарихнавислигида Муҳаммадризо Огаҳийнинг “Зубдат ут-таворих” асари: Тарих фан. 6. фалс. докт. дисс. автореф. – Тошкент, 2022 – Б.12.

³¹ Bregel Y. Tribal tradition and dynastic history: The early rulers of the Qongrats according to Munis // In: Asian and African Studies. – 1982. – 16/3. – Pp.381-385, 392-397.; Munis Shir Muhammad Mirab and Agahi Muhammad Riza Mirab. Firdaws al-iqbāl. – P.543.

³² خوارزم تارىخى. محمد يوسف بيانى. ЎзРФА Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди. – №7421. – Б.5⁶.

³³ Ko‘rsatilgan manba. – Б.4⁶.

zamondoshlari, xususan, hukmron sinf vakillarini ezgulikka undash bo'lgan. Muarrixlar tutgan ijtimoiy mavqe ayon haqiqatlarning barchasini ham bayon qilishga imkon bermas edi. Shuning uchun ular tarixiy-adabiy asarlarini tarbiya vositasiga ham aylantira bildilar. Zero, Ogahiy yuksak saviyali madaniyatli kishi bo'lib, jamiyatning madaniy, ma'rifiy talablarini ongli suratda idrok qilgan. Shuning uchun u: "... *andak forig' bo'lg'an va fursat topgan vaqtlarda kamoli shavq va ixlos bilan ulamo-yu vuzaro xizmatlariga rag'bat bila borib, nuktadonliklari sharbatlari lazzatidin shirinkom bo'lib, sur'at bila axtorib kitobxonlig' lari vaqtidin hazzi vofir olib, ruhafzo iboratlariga quloq solur*" edi.

1.1.3. Ogahiy tarixiy-adabiy asarlarining solnomanavislik taraqqiyotidagi o'rni. Ogahiyshunoslar buyuk shoir, tarjimon va muarrixning Shermuhammad Munisga qarindoshligi ijodida muhim o'rin tutishiga alohida e'tibor qaratganlar. Muhimi, Ogahiy Munis zikr qilingan o'rinlarning aksar hollarida o'zini "*aning birodarzoda-yu dastparvardasi...*"³⁴ deb tanishtiradi. Mana shu ifodalarning o'zi Ogahiy tarixnavislik uslub ildizlarini ham bir qadar ko'rsata oladi. Ogahiyning Munisga aynan "*birodarzoda va dastparvarda*"ligi uning Munisdan keyin Xorazm xonligi bosh tarixchisi bo'lib qolishga intilishining asosi edi. Chunki muarrix uchun bu maqom Munis tomonlama meros mulk kabi o'ta qadrli sanalardi. Shuning uchun ham Ogahiy o'zi yozganidek, uning nazdida "*voqe'ot-u futuhot ta'lifi va tarix tasnifi*" "*mavrusiy xizmat va qadimiy hirfat erdi*" [GD, 5^{a,b}]. Shuning uchun u har bir asar yozilishiga amrni "*kamoli shafqat-u marhamat*" anglab, "*ashboh va amsoli... arosida qadr-u iftixori... boshin falaki davvor avjidan oshur*"mog'i sifatida anglaydi. Xuddi shuning uchun eng so'nggi tarixiy-adabiy asarida ham buni xonlarning "*inoiyati podshohona va avotifi mulukonasig'a maxsus tutish*" ekanini qayd etadi³⁵. H.Nazirova bu haqda: "O'zlikning bunday taqdimoti, so'zsiz, Ogahiy – muallifning ijodkor sifatidagi rashki, shartli qilib olganda, Xorazm "tarixnavisligi maydoni"dagi monopoliyaga ega bo'lmasa ham, arziydigan darajadagi sardorlikka [liderlikka] intilishini ko'rsatadi³⁶", – deb yozadi. Haqiqatan, Ogahiy tarixiy-adabiy asarlarini shakllantirgan omillar xususida tarixchi nigohi ham juda qimmatli fikrlar berishini olimaning Ogahiyga nisbatan "ijodkor sifatidagi rashki" ifodasini qo'llashida yaqqol ko'ramiz.

Keyingi yillarda Xiva tarixshunosligi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida Olloqulixon davrida (1825–1842) yaratilgan to'rtta asar mualliflarining nomi aniqlandi: "Tarixi Allohquli Muhammad Bahodurxon", "Tarixi Allohqulixon" va "Voqeayi Yusuf Mehtar" asarlari Mirzo Masiho Buxoriyga tegishli (1841–1844-yillarda vafot etgan); "Jamshidi tavoyifi fathi" Eshmurod Oxund al-Alaviyga tegishli³⁷. Eshmurod ibn Odina Muhammad al-Alaviy haqida

³⁴ Shir Muhammad Mirab and Myhammad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm / Edited by Yuri Bregel. T.J.Brill. – Leiden – New York – Kobenhavn – Koln, 1988. – P.843.; رياض الدولة ЎзР ФА Шарқшунослик институти. 5364 / II. – B.315⁶; گلشن دولت ЎзР ФА Шарқшунослик институти, – №7572. – Б.4^a.

³⁵ شاهد الاقبال Санкт-Петербургда сақланаётган қўлёзманинг фотонусхаси / ЎзР ФА Шарқшунослик институти 70/1, 70/2. – Б.3⁶.

³⁶ Назирова Х. Қўнғиротлар сулоласи тарихнавислигида Мухаммадризо Огаҳийнинг "Зубдат ут-таворих" асари: Тарих фан. б. фалс. докт. дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – Б.14.

³⁷ Жабборов Н. Тарих ва ҳозирги замон уйғунлигини таъминлашнинг инновацион йўллари. // "Ёш олимлар ахборотномаси" – «Вестник молодых ученых» – «The bulletin of young scientists». – 2019. – №2. – Б.17.

hozircha eng birlamchi va asosiy tadqiqotlar N.Toshev qalamiga mansub. Ularni umumlashtirib qisqacha bayon qiladigan bo'lsak, muarrixning nom va lavozimlari (*al-Alaviy, maxdum, mulla, domullo, oxund*)dan anglash mumkinki, Domulla Eshmurod aslzoda diniy olimlar sulolasiga mansub bo'lgan. Eshmurod oxundning Rahimquli madhidagi qasidasi maqta'sidan uning Murodiy taxallusi bilan she'rlar yozgani ma'lum bo'ladi.

Bobning ikkinchi fasli **“Solnomalar badiiyatini yuzaga keltirgan omillar”** deb nomlangan. Ogahiy tarixiy-adabiy asarlari badiiyatini yuzaga keltirgan omillar va vositalar aynan bir narsa emasligi, ularning muayyan farqlari mavjudligini ta'kidlash lozim.

Mumtoz asarlar uslub va ruhiyati ta'siri. Ogahiy tarixiy-adabiy asarlarini ijtimoiy fanlarning qaysi yo'nalishi bo'yicha o'rganmaylik, mumtoz asarlar uslubi va ta'siri omilini chetlab o'tish imkoni yo'q. Ularga solnoma sifatida qaragan vaqtimizda ham, tarixiy voqealikni ana shu omilni e'tiborga olgan taqdirda real tasavvur qilamiz. Shu bilan birga, unda tasvir, til va uslub, badiiyat bobida mumtoz asarlar ta'siri yaqqol namoyon bo'lib turuvchi jihatlar tez-tez ko'zga tashlanadi. Ana shulardan biri jahon adabiyotining yirik namunalaridan biri Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma”sidir.

Ogahiy tarixiy-adabiy asarlarida shunday satrlar borki, ular bevosita “Shohnoma” ta'sirida vujudga kelgan. Ijodkorning deyarli har tarixiy-adabiy asarida “Shohnoma” qahramonlari eponim sifatida ishtirok etadi. Masalan, *Suhrob, Isfandiyor, Rustam, Zol* va shu kabilar. Shu bilan birga, “Shohnoma” mutolaasisiz yoki bu epopeyaga bog'lamasdan Ogahiy ishlatgan ayrim so'zlar, atoqli otlar va ifodalarni anglash mumkin emas.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Tarixiy-adabiy asarlarda timsollar silsilasi va uning badiiy-g'oyaviy vazifalari”** deb nomlangan. Bu bobda Ogahiy tarixiy-adabiy asarlaridagi fikrlar uyg'unligi, badiiy barkamollik, timsollarning o'quvchi zehninga kuchli ta'siri ularning o'ziga xos ichki bir qonuniyat asosida shakllangani haqida gap boradi.

Bobning birinchi fasli **“Ma'rifiy-irfoni timsollar”** deb nomlanadi. Ogahiy tarixiy-adabiy asarlari har tomonlama keng ko'lamli polotno bo'lgani bois unda qator xususiyatlari bilan umumiy, yana qator jihatlar bilan bir-biridan farqlanuvchi timsollar tizimi vujudga kelgan. Shulardan bir guruhini ma'rifiy-irfoni timsollar tashkil qiladi. Jumladan, *adolat* Ogahiy tarixiy-adabiy asarlarida turli vositalar orqali ilgari surilgan eng muhim g'oyalardan biridir. E'tibor qaratilsa, muarrix tarixiy-adabiy asarlarining bir necha o'rinlarida “Nahl” surasidagi “innallāha ya'muru bi-l-'adli va-l-ihsāni”, ya'ni “Albatta, Alloh adolatga, ezgu ishlarga... buyurar” deyilgan 90-oyatidan iqtibos keltiradi. Muarrix nazdida sultonlar adli qiymati nihoyatda baland. Jumladan, “Jome'u-l-voqeoti sultoniy”da hukmdorlar adolati haqida Sharqda mashhur rivoyat eslanadi. Hikoyat mazmunicha, bir podshoh bir necha bor haj qilgan darvishdan uning bir hajlik savobini sotib olmoqchi bo'ladi. Shunda darvish dedi: “Agar *adl* bila bir mazlumning dodig'a yetkaning savobin manga bersang, men yetmish bir martaba qilg'an hajimning savobin sanga berurmen. Anda ham men ko'p sud qilg'umdur va sen bisyor ziyon

aylagingdur”. Bu soʻz din podshoh bagʻoyat xushhol boʻlib, darvishni altofi xusravonasidin bahramand qilib qaytardi va oʻzi saltanat saririga minib, adolat marosimiga ishtigʻol koʻrguzdi” [JVS, 24^b].

Ogahiy adolat gʻoyasini ilgari surishda bir necha marhala – bosqichdan iborat ifoda vositalaridan foydalangan: 1. Oyati karimalar. 2. Hadisi shariflar. 3. Sahobalar hayotiga oid vositalar. 4. Valiylar hayotiga oid vositalar. 5. Hikmatlar asosidagi vositalar.

Ogahiy tarixiy-adabiy asarlarida adolat va odil shoh tushunchalari quyidagi timsollar orqali oʻz ifodasini topganini koʻramiz:

Suv mumtoz adabiyotimizda qanchalik ulugʻlangani, qator qadrlil va yuksak tuygʻu hamda ashyolar timsoli boʻlgani maʼlum. Adolat shulardan biridir. Suv oʻtini qay darajada oʻchirsa, adolat zulm, qahr-u gʻazabdan yetgan doʻzaxiy azobga chek qoʻyadi: “qahri oʻtigʻa duoyi muxlisona suyi bila taskin berib...” [RD, 311^a].

Ogahiy tarixiy-adabiy asarlari mutolaasi orqali undagi timsollar silsilasi yana ham teranroq anglatadigan, shuurimizda yorqinroq oʻrnashadigan lavhalarga koʻplab duch kelamiz. Lekin Ogahiyda ikki turli suv: *adolat suvi* va *gʻazab suvi* farqlanadi: “*aksar shianing xonumon-u xirmani jonlarigʻa qilich suyidin oʻt urub, barcha ayol-u atfolin asir va asbob-u amvolin oʻlja qilib kelturdilar va iltifoti bekarona bila sarafroz boʻldilar*” [RD, 324^b]; “*gʻazab tigʻining suyidin ajal labtashnasi boʻlgʻan mufsidlarni serob va xonumonin xarob qildilar*” [RD, 285^a].

Ogahiy tarixiy-adabiy asarlarida adolat va zulm ziddiyati unga yondosh qator tushuncha va timsollarni shakllantirgan: *sabo – samum; adolat – gʻorat; mazraʻ – sahro* kabi. Buni quyidagi parcha misolida ham koʻrishimiz mumkin: “umidlarin mazraʻsin gʻorat samumidin qurutilar” [RD, 348^b].

Ogahiy nazdida har qanday hukmdor emas, odil shoh – quyosh. Chunki bunday hukmdorlar “*majlis ahligʻa ayni inoyat va panjayi saxovatidin quyosh yangligʻ zarposhligʻlar koʻrguzub, bahori ehsonidin ul jamoaning roʻzgori xoristonigʻa jannat gulistonidek sarsabz-u rayyonligʻlar yetkurur*” [RD, 251^b]. Adolat quyoshrutba – quyosh kabi maʼnaviy yuksak maqomda boʻlishning bosh mezonidir, shunda mamlakat hukmdori oʻz fuqarolari uchun ilohiydan yetgan soyabon, ilohiy bir quvvat, ilohiy bir qalqonga aylanadi:

Shohi quyoshrutba-yu gardunhasham,

Xusravi jamsavlat-u zarrinalam.

Kishvari Xorazm uza xorazmshoh,

Ahli jahon boshigʻa zilli iloh [RD, 265^a].

Ogahiy tarixiy-adabiy asarlarida adolat gʻoyasining ifoda usullaridan yana biri ushbu gʻoyaning Sharqda adolat timsoliga aylangan shaxslar, yaʼni Umar raziallohu anhu va Anushervon timsollari orqali berilishidir. Jumladan, muarrix asarlarida zamona shohlarini insoniyat tarixidagi eng odil hukmdor hazrati Umarga qiyoslaydi. Albatta, Ogahiyning bunday nisbat berishlari bir qarashda oʻtmish shoirlariga xos madhiyabozlik boʻlib tuyulsa, aslida hukmdorlarga ishonchli umid va umidli ishonch izhori edi.

Ogahiy tarixiy-adabiy asarlarida adolatning yana bir obraz – *Anushirvon* // *No'shirvon* bilan berilishi yana ham chuqurroq ma'noga ega edi. Chunki Anushirvon musulmon bo'lmasa ham, adolati sharofati bilan musulmonlar qadar e'zoz topgan shaxs edi. Bu esa o'z zamonasi xonlari, hukmdorlarini adolat hokimning boshqa ayblarini yuvib keta oladigan darajada ulug' fazilat, deb umidlantirib, ruhlantirishga vosita bo'lgan.

Bobning ikkinchi fasli “**Tarixiy-adabiy asarlarda tarixiy va epik timsollar**” deb nomlanadi. Muhammad Rizo Ogahiy tarixiy-adabiy asarlaridagi tarixiy va epik timsollarning o'zini bir necha ichki guruhga ajratish mumkin. Ko'pgina ishlarda diniy va afsonaviy shaxslar yoki shunga yaqin ifodalar bilan berib kelinayotgan payg'ambarlar nomlari aslida tarixiy shaxslar yirik guruhiga mansub kichik guruhdir.

Tarixiy-adabiy asarlarda payg'ambarlar nomlarining timsol sifatidagi o'rni alohida ahamiyatga ega. Ulardan biri shuki, badiiy asarlarda, xususan, lirik asarlarda payg'ambarlar nomlari shoir ichki hissiyotini yorqinroq ifodalashga xizmat qilsa, tarixiy-adabiy asarlarda ular muhim ijtimoiy-siyosiy fikrlar anglatishga xizmat qiladi. Masalan, Sulaymon alayhissalom nomi o'zbek tilidagi yodgorliklarda ko'p bor uchraydi. Shu timsol munosabati bilan aytish lozimki, Ogahiy tarixiy-adabiy asarlarida payg'ambarlar nomlari quyidagi vazifa va holatlarda ishlatiladi: 1. Antroponim sifatida. Nom biror payg'ambar alayhissalomning o'z nomi bo'lib kelishi. Masalan, “*Sulaymon* majlisig'a Hudhud vosil bo'lg'andek...” [RD, 290^b]. 2. Timsol sifatida. Uning timsol sifatidagi vazifasi nom o'rniga uning timsoliy ifodasini qo'yish mumkinligidan ma'lum bo'ladi: “Hikoyat olamining *Sulaymoni* ...” [RD, 264^b]. 3. Qo'shma so'z qismlari sifatida. E'tiborlisi, bunday qo'shma so'zlar nomning timsoliy ma'nosi asosida shakllanadi: “*Sulaymonmulk-u* davlat shahriyori” [JVS, 12^b]. 4. Yasalmalarga asos sifatida (bunday yasalmalar ham payg'ambarlar nomlarining timsoliy ma'nosiga asoslanadi). Masalan, “...surmayi *sulaymoniy* yetkurdi” [RD, 277^a].

Ogahiy o'z muhiti va vaziyatdan kelib chiqqan holda samarali vosita sifatida Qur'on qissalari, o'tmishdagi avliyolarga oid voqealarni zamon bilan bog'liq ravishda bayon qilishdan unumli va o'rinli foydalanadi. Masalan,

Kofirki, bo'ldi Nuhg'a kishti yasarda yor,
To'fon talotumidin (anga) yetmadi zarar.
Mo'ming'a mo'minedin agar yetsa yorlig',
Mumkinmu, do'zax o'ti anga qilg'ay asar?!” [FI, 46]

Avj ibn Unuq obrazining o'zbek mumtoz adabiyoti, xususan, Alisher Navoiy asarlaridagi talqini ilmiy o'rganilgan³⁸. Solnomalarda uning mazmuni yana ham chuqurlashtirilib, katta falsafiy ma'no kasb etgan. Demak, Avj ibn Unuq kofirligiga qaramasdan (“bovujudi shirkat”) Nuh alayhissalomga kema yasashda yordam bergani uchun to'fon butun olamni tutsa ham, omon qoladi. Bu bilan muarrix kishi kim, qaysi e'tiqod-u aqidada bo'lishi, qanday maqom egasi ekaniga

³⁸ Жўраев М., Нарзукулов М. Миф, фольклор ва адабиёт. – Тошкент: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2006. – Б.92.

qaramay, haqiqat tarafdori bo'lishi, birovlariga yordam qo'lini cho'zishi lozimligi haqidagi g'oyani o'rta tashlaydi.

Bobning uchinchi fasli "**Tabiiy va ijtimoiy omillar asosidagi timsollar**" deb nomlanadi. Bunda tabiiy va ijtimoiy omillar asosida shakllangan timsollarning bir qismi sanalgan samoviy timsollar, shuningdek, real va irreal zoonimlar bilan bog'liq timsollar tahlilga tortiladi. H.Eshonqulov o'z nomzodlik dissertatsiyasida kosmogonik qarashlarning tarixiy asoslari va ularning badiiy tafakkurga ta'siri hamda samoviyot haqidagi islomiy qarashlar va Sharq falakiyot ilmining badiiy adabiyotdagi in'ikosi masalalariga bir qadar jiddiy e'tibor qaratgan³⁹.

Hukmdorlarni **quyosh**ga o'xshatish qadimiy ildizlarga ega. Dastlab odamlar quyoshni ilohga nisbat berganlar. Mutlaq borliq qator jihatlar bilan quyoshga qiyoslangan bo'lsa, islomiy aqida bu qarash tamoman botil ekanini, Alloh betimsolligini, quyosh Yaratgan xilqatlari ichida bir zarraligini uqtirdi.

Ogahiy tarixiy-adabiy asarlarida mamlakat hukmdorining quyoshga qiyos qilingan ayrim parchalarga e'tibor qaratamiz:

Shahriyordurmu, zavraqda qilur Jayhunni sayr

Yo quyosh qavsi quzah ichra qilur gardunni sayr [ZT, 420^b].

Mumtoz adabiyotimizda **yulduz**lar aksar hollarda yuksak e'tiborga ega shaxs atrofidagi insonlar va qo'shin kabilarning timsoli sanalgan. Bu timsollar asosini esa o'xshatishlar tashkil qiladi. Masalan, Alisher Navoiy Muhammad alayhissalomni oyga va quyosh (mehri olamoroy)ga, boshqa payg'ambarlarni yulduzlarga qiyoslab, shunday deydi:

Muhammadkim, rusul anjumdur, ul oy,

*Qayu oy, balki mehri olamoroy*⁴⁰.

Ogahiy tarixiy-adabiy asarlarida yulduzlar zamondoshlar, davrdoshlar, mumtoz adiblarimiz o'z tillari bilan aytganda, abnoyi jins timsoliga vosita bo'ladi. Bunda ham tashxisning katta o'mi bor. Bunday holatlar aks etgan satrlarni o'qib, hayratdan ko'zlari bir tusga kelgan tumonot odam yoki ko'zlaridan shashqator yoshlar to'kib turgan xokisor xalq tasavvurimizda jonlanadi:

Kecha andoq bo'lub zohir charog'on,

Ki anjum ko'zlarini qildi hayron [RD, 295^b].

Muarrif shu bilan muayyan yulduz yoki yulduzlar turkumi nomlari orqali ham o'z poetik maqsadlariga mos timsollarni yaratadi yoki mavjud timsollarga yangicha joziba baxsh etadi. Masalan, *Yetti qaroqchi* yulduzining timsol sifatidagi anglamlari ham M.Jo'rayev⁴¹ tomonidan yetarlicha o'rganilgan. A.Primov bu yulduz turkumining turli davrlarda har xil nomlanishi xususida mufassal so'z yuritadi⁴².

³⁹ Эшонкулов Х.П. Алишер Навоий шеърларида самовий тимсоллар ("Бадойиъ ул-бидоя" ва "Наводир ун-нихоя" девонлари асосида): Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – Б.11–40.

⁴⁰ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Биринчи жилд. – Тошкент: Фан, 1987. – Б.8.

⁴¹ Жўраев М. Етти ҳомийнинг мифологик асосларига доир // Адабий мерос. – Тошкент, 1989. – № 2. – Б.46–49.

⁴² Примов А. Етти қароқчи юлдуз туркумининг номланиши. // Адабиёт кўзгуси. Илмий тўплам. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги "Халқ мероси" нашриёти, 2002. – №7. – Б.166–170.; Shu muallif. Ўзбек тили космонимларининг лисоний хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2009. – Б.83–87.

Solnomalarda timsollar silsilasining katta bir qismi hayvonot olami bilan bog‘liqdir. Bular ham o‘z navbatida quyidagi ichki guruhlariga ajratiladi: 1) real zoonimlar; 2) irreal zoonimlar.

Real zoonimlar o‘quvchilarga ma‘lum va katta ko‘pchilik bilgan *qo‘y*, *qo‘zi*, *ilon*, *chayon* kabi tabiatda mavjud jonivorlarni ifodalovchi nomlardir. Tabiatda mavjud bo‘lmagan yoki insonlar mavjudligini bilmagan jonivor nomlari irreal zoonimlardir. Bunga *ajdar*, *anqo*, *humo*, *dobbatularz* kabilarni kiritish mumkin.

Ajdar timsoli. Ajdar etimologiyasi va uning kult sifatida shakllanish bosqichlari haqida M.Jo‘rayev tadqiqotlarida so‘z yuritilgan⁴³. Ajdar ramz sifatida ayrim xalqlarda nafaqat yovuzlik va vahshiylik, aksincha, kuch-qudrat, ezgulik va olijanoblik timsoli ham sanaladi. Buni Ogahiy tarixiy-adabiy asarlarida ham kuzatamiz. Masalan, bir-biriga munosib ikki qarama-qarshi qo‘shin askarlari “Biri *ajdarho*, biri sheri jayon, Biri babr-u biri hizabri damon” [FI, 614], deb ta’riflanadi.

Ogahiy lirikasida ham yor sochlari *ajdarga* qiyos qilinar ekan, unga nisbatan ijobiy nazar, mehrli nigoh aks etib turadi. Jumladan, shoir yor yuzini to‘sis turgan zulflarni shunday bebaho xazinani qo‘riqlashga loyiq ajdar, deya “tasanno” izhor qiladi:

*Yuzing nazzorasidin elga bo‘lmish kokuling mone’,
Bu yanglig‘ ganj hifziga bu nav‘ ajdar munosibdur*⁴⁴.

Ikkinchi tomondan ajdar komiga tortgan narsani omon qo‘ymaydigan ajal timsoliga aylanadi:

*Oqibat marg ajdari jisming damiga tortgay,
Gar Masihodek tirguz necha o‘lukni dam bila*⁴⁵.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Tarixiy-adabiy asarlar nasriy qismi badiiyati**” tadqiqiga bag‘ishlangan bo‘lib, bobning birinchi faslida “**Ogahiyning saj‘ qo‘llash mahorati**” haqida fikr yuritiladi. Ma‘lumki, Ogahiyning badiiy asarlaridagi ijodkorlik salohiyati muarrixlik faoliyatida bevosita o‘z aksini topgan. Yaratilayotgan asar xoh tarixiy, xoh badiiy bo‘lsin, uning o‘qishlilikini, ta’sirchanligini, go‘zalligini, ohangdorligini ta’minlovchi qadimiy vosita va usullardan biri saj‘ san’ati hisoblanadi. Ogahiy tarixiy-adabiy asarlarida voqealar bayoni va shaxslar xarakterini ochib berishda, harakat-holatni ifodalashda, ov tasvirida, o‘rin-joylar ta’rifida qofiyali nasr, ya’ni saj‘dan unumli foydalangan. Ta’rif va tavsif jarayonida esa o‘xshatish, mubolag‘a, epitet, alliteratsiya, tanosub, ishtiyoq, tazod kabi badiiy-tasviriy vositalarini unumli qo‘llagan.

“*Chun yamutiya mufsidlari Xivaq shahri muzofotining chapovulig‘a kelib, go‘shmoli balig‘ ko‘rib, shikasti fohish topib, maqtul va ma’sur va majruh bo‘lub qayttilar*” [SHI, 81^b]. Hijriy 1284-yil muharram oyida (milodiy 1867-yil may-iyun oylariga to‘g‘ri keladi) yovmut urug‘idan bo‘lgan talonchilarning Xivaga

⁴³ Жўраев М. Ўзбекларнинг шамол билан боғлиқ мифологик тасаввурлари. 3. Аждар култи. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1998. – №1. – Б.51.

⁴⁴ Мухаммад Ризо Огаҳий. Тўла асарлар тўплами. 1-жилд: Девон. Нашрга тайёрловчилар: Д.Ғойипов, С.Сариев, Б.Умрзоқов. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2014. – Б.109.

⁴⁵ Мухаммад Ризо Огаҳий. Ko‘rsatilgan manba. – Б.271.

bosqinchilik harakatlari ifodalangan ushbu parchada “*maqtul*”, “*ma’sur*” va “*majruh*” soʻzlari sajʼi mutavoziinga mansub boʻlib, mafʼul shaklida oʻzaro mos kelsa ham, raviyda muvofiqlik yoʻq. Bu soʻzlarni ketma-ket keltirish orqali esa muarrix tasvir bayonini kuchaytirgan. Matndagi bu soʻzlarning izchil keltirilishidan bosqinchilik harakatining oqibatlari yaxshilikka olib kelmasligi, har bir qasddan qilingan harakatning javobi boʻladi, degan maʼno ham anglashiladi.

Maʼlumki, sajʼ hosil qiluvchi soʻzlar fosila deb ataladi. Har bir fosila oʻzining oldidagi soʻzlar bilan birgalikda sajʼning bir boʻlagini tashkil qiladi va qarina deb ataladi⁴⁶. Ogahiyning tarixiy-adabiy asarlaridagi sajʼlanish holatlarini faqat fosiladan iborat holda yoki aksincha, qisqa yoki uzun qarinalar shaklida koʻrishimiz mumkin. Shu jihatdan olib qaralganda, sajʼlanishlarni tuzilishiga koʻra quyidagicha tasniflash mumkin: 1. Faqat fosiladan iborat sajʼlanishlar. Bunda fosila bir soʻzdan iborat boʻladi: “*Va amoratpanoh, izzatdastgoh Suyunboy dagʻi hamul yil vafot etdi*” [RD, 330^b]. 2. Qisqa qarinali sajʼlanishlar. Bunda fosila oldidan soʻz keladi: “*Sipohi davlatpanoh dagʻi ul borgoh atrofida gunogun xaymalar va fayznamun shamyonalar qurub... tong otgʻuncha aysh-u tarab jomigʻa mayl koʻrguzdi*” [ZT, 406^b]. 3. Uzun qarinali sajʼlanishlar. Bunda fosila oldidan bir nechta soʻz keladi: “*Bu shikor irodasi ul hazratning muborak xotirigʻa mujazzim va sayr taqozosi humoyun zamirigʻa musammim boʻlgʻondin soʻng safar asbobining ehtimomi va yoʻl zodi rohilasining saranjomi uchun ... karam-u ato xazoyini eshiklarin ochti*” [SHI, 37^b].

Ogahiyshunos olim Q.Munirov tarixchi Bayoniyning Ogahiy bayoni xususidagi quyidagi fikrlarini keltirib oʻtadi: “*Ogahiy ham Munis mirobning birodarzodasi va dastparvardasi erdi, uning uslubida majoz va istiora bilan soʻz bayon etar erdikim, kalomining diqqati sababidin omma xalqi maolin fahm eta olmas erdilar*”⁴⁷. Lekin shuni ham taʼkidlash joizki, Ogahiydek soʻz dahosi uchun oʻz fikrlarini bu tarzda ifodalash oddiy hol sanaladi.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli “***Tarixiy-adabiy asarlarda iqtibos***” deb nomlangan. Oʻzbek adabiyotida Qurʼon mavzusi maxsus oʻrganilgan⁴⁸. H.Karomatovning ushbu tadqiqotida Qurʼonning oʻzbek islom adabiyotiga adabiy taʼsiri haqida toʻxtalib, mavzu doirasida “*Qutadgʻu bilik*”dagi qurʼoniy mavzular talqini, Pir Ahmad Yassaviy hikmatlari, Qurʼondagi Yusuf haqidagi goʻzal qissa va Durbekning “*Yusuf va Zulayho*” dostonining oʻzaro qiyosiy tahlili, Alisher Navoiyning “*Hayratu-l-abror*” dostonidagi qurʼoniy mavzular atroflicha tahlil qilingan.

Ham lafzga, ham maʼnoga daxldor iqtibos mushtarak sanʼat turiga mansub boʻlib, uning ikki xil koʻrinishi haqida fikr yuritiladi⁴⁹:

1. Darj – oyat yoki hadis aynan keltirilgan iqtibos turi. Ogahiyning tarixiy-adabiy asarlarida oyat va hadislar nihoyatda katta sanʼatkorlik bilan

⁴⁶ Атоуллоҳ Хусайний. Бадойиъу-с-санойиъ. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б.62.

⁴⁷ Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002. – Б.57.

⁴⁸ Ҳамидулла Кароматов. Қуръон ва ўзбек адабиёти. – Тошкент: Фан, 1993. – Б.96.

⁴⁹ Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Oʻzbekiston, 2014. – Б.57.

qo‘llanilgan. Ular ifoda, bayon uchun oddiy bezak, ziynat emas, balki muarrix fikrini quvvatlab, uni kuchaytirishga xizmat qiluvchi muhim vosita hisoblanadi.

Ogahiy tarixiy-adabiy asarlarida ko‘pincha oyat va hadisni to‘liq emas, balki ma‘lum bir bo‘lagini keltirish orqali uning mazmuniga ishora qiladi. Masalan, shahzoda Rahmonquli to‘raning o‘z a‘yonlarini maslahatga chaqirish bayonida “... *altofi podshohona va a’tofi bekarona izhoridan so‘ng alarning har biriga “shāvirhum fi-l-amri” amrining muqtazosi bila mashvarat yuzidin xitob qilib*” [RD, 258^a] jumalari bitiladi. Matndagi “*shāvirhum fi-l-amri*” (وَشَاوِرْهُمْ فِي الْأَمْرِ) jumlasini Oli Imron surasining 159-oyatining bir qismi hisoblanadi. Ko‘rinadiki, muarrix bu o‘rinda oyati karimani to‘liq keltirib o‘tmasdan, faqat o‘z maqsadini bayon etish uchun oyatning bir bo‘lagiga murojaat qilgan. Shahzodaning majlis chaqirib, muhim masalalarni mashvarat orqali hal qilishini “*va ishlaringizda ularga maslahat soling*” oyati mazmuni bilan dalillab o‘tgan.

Matnga e‘tibor qaratsak, “muqtazo” so‘zini qo‘llash bilan xonning dinga munosabati ta’kidlanib, madh ifodasi kuchaytirilmoqda, oyatdagi “amr” (أَمْرٌ) so‘zining “amr” – buyruq ma’nosida yana bir bor ishlatilishi vositasida takrir (takror), tajnis (omonimiya) san’atlari yuzaga kelmoqda. Shuningdek, “shovirhum” (شَاوِرْهُمْ) lafzi hamda “mashvarat” so‘zlaridan ishtiyoq (o‘zakdoshlik) san’atlari yaratilgan.

Ogahiy xonning (Abulg‘ozi Olloquli Muhammad Bahodirxon) nazr va sadaqa berish haqidagi farmoni xususida gapirar ekan, shunday yozadi: “... *Muhammad Rizo qo‘shbegiga farmoni vojibul-az‘on va amri qazo jarayoni mavqif jahi jaloldin bu nav’ izzi isdor topdikim, “aś-śadaqatu taruddu-l-balā’a va tazīdu-l-‘umr” muqtazosicha, shaharning ichida va tashqarisida osuda bo‘lg‘on avliyolarg‘a nuzurot va masokin va fuqarolarg‘a sadoqot berib, duoyi davlat olsun*” [RD, 265^a]. Ushbu o‘rinda “sadaqa balolarni qaytaradi va umrni uzaytiradi” mazmunidagi hadis keltiriladi.

2. Hall – oyat yoki hadisning tarjimasi yoki mazmuni keltiriladi. Lekin Atoulloh Husayniy aqd san’atining (nasrning mazmunini nazmda bayon qilish) zidi bo‘lgan nazmning mazmunini nasrda chiroyli bayon qilish san’atini “hall” deb ataydi⁵⁰.

*Borib o‘q damodam qo‘rg‘on sorig‘a,
Shihob ul nav‘kim, shayton sorig‘a* [RD, 275^a].

Mazmuni: Shihob (kulrang yulduz, meteor) shaytonga otilgani kabi o‘qlar dam-badam qo‘rg‘on tomonga otiladi. Eslatib o‘tish joizki, bu parcha keltirilgan o‘rinda mazhabiy ixtiloflar harbiy tus olgan holat tasvirlangan. Baytning mazmuni hamda unda “shihob” va “shayton” (ko‘pligi “shayotin”) so‘zlarining ishlatilishidan unda “Mulk” surasining 5-oyatiga ishora borligi yaqqol ko‘rinadi. Bu sura Makkada nozil bo‘lib, u 30 oyatdan iborat. Ushbu surayi karima o‘zining birinchi oyatida kelgan “mulk” so‘zi bilan nomlangan.

⁵⁰ Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойиъ. – Тошкент, 1981. – Б.244.

Ko‘pchilik uni o‘zining birinchi so‘zi bilan nomlab, “Taborak” surasi deb ham ataydilar. Suraning 5-oyati ifodasi quyidagicha:

وَلَقَدْ زَيَّنَّا السَّمَاءَ الدُّنْيَا بِمَصَابِيحَ وَجَعَلْنَاهَا رُجُومًا لِلشَّيَاطِينِ وَأَعْتَدْنَا لَهُمْ عَذَابَ السَّعِيرِ

Mazmuni: Va darhaqiqat, Biz yaqin osmonni chiroqlar bilan ziynatlab qo‘ydik va u (chiroq)larni shaytonlarga otiladigan narsa ham qilib qo‘ydik. Va u (shayton)larga olovi qizib turgan jahannamni tayyorlab qo‘ydik. *(Arab folbinlari bizning shaytonlarimiz osmonga chiqib, g‘oyibdagi narsalarni bilib beradi, deb maqtanar edilar. Qur’oni Karim buni rad etib, bu dunyoda shaytonlarni yulduzlardan ajrab chiqqan uchqunlar quvib haydashini, u dunyoda esa, ularga Alloh jahannam azobini tayyorlab qo‘yganini ta’kidlamogda)*⁵¹.

Ushbu oyat mazmunidan “Firdavsu-l-iqbol” asarida ham foydalanilgan bo‘lib, dushman lashkariga qarshi kurashda ularning o‘q yomg‘iri ostida qoldirilishi ushbu oyat mazmuniga ishora bilan ifodalangan [FI, 388].

Badiiy adabiyotda bo‘lgani kabi tarixnavislikda ham iqtibos san’atidan foydalanilgan. Keyingi davr tarixiy asarlari uchun ma’lum bir ma’noda tajriba vazifasini o‘tagan Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida Qur’oni karimning 103 oyatidan iqtibos olingan⁵². Islom mafkurasiga asoslangan davlat tarixini yaratishda bu holat tabiiy hisoblanadi. Xususan, tadqiqot mavzumiz bo‘lgan Ogahiyning tarixiy-adabiy asarlarida ham Qur’on oyatlari va hadislardan unumli foydalanilgan. Masalan, “Firdavsu-l-iqbol” asarining Ogahiy qalamiga mansub qismida 20 ta, “Riyozi-d-davla” asarida 47 ta, “Zubdatu-t-tavorix” asarida 34 ta, “Jome’ ul-voqeoti sultoniy” asarida 59 ta, “Gulshani davlat” asarida ham 59 ta, “Shohidu-l-iqbol” asarida 67 ta oyat keltirilgan bo‘lib, diniy ilmlarning chuqur bilimdoni bo‘lgan Ogahiy oyat va hadislardan o‘z fikrini diniy dalillash, uning ta’sir kuchini oshirish maqsadida foydalangan. Tabiiyki, oddiy so‘zlar tizmasidan ko‘ra Qur’on oyatlari orqali berilgan hukm qat’iy va ishonchli chiqqan.

Uchinchi fasl **“Epik bayon tasvirida sifatlashlar va o‘xshatishlarning o‘rni”** masalasiga bag‘ishlangan. Ogahiyning shoirlik salohiyati ma’lum bir ma’noda muarrixlik mahoratini shakllantirishda tayanch asos bo‘lib xizmat qilgan. Voqealarning xolis yoritilishi, oyatlardan o‘rinli foydalanish, nasriy va nazmiy parchalarning o‘zaro mutanosibligi Ogahiy iste’dodining yana bir o‘ziga xos qirrasini namoyon qilgan. Xususan, shoir-muarrix o‘zining tarixiy-adabiy asarlarida epitet (sifatlash) va o‘xshatish kabi badiiylik yaratuvchi birliklardan unumli va o‘rinli foydalana olgan.

Badiiy-tasviriy vositalarining o‘ziga xos muhim ahamiyat kasb etadigan bir turi **sifatlash**dir. Bunday epitetlar orqali sifatlanayotgan narsa yoki hodisaning tashqi va ichki mohiyati yaxlitlikda ifodalanadi, tasvirlanadi. Demak, sifatlashlarsiz shoir yoki nosir tomonidan ta’riflanayotgan, tasvirlanayotgan badiiy obraz haqidagi fikrlar to‘la ochilmasligi mumkin. Ogahiy tarixiy-adabiy asarlarida

⁵¹ www.islom.uz

⁵² Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари Ашраф Аҳмад, Ҳайдарбек Бобобеков.

badiiy an'anaga ko'ra, sifatlashlarni juda o'rinli qo'llagan. Bunda o'sha davr til xususiyatiga ko'ra sifatlashlar ba'zi holatlarda fors tili ta'sirida izofali tarzda, ba'zi o'rinlarda turkiy til qurilishiga mos – o'z sifatlanmishidan oldin qo'llanilgan: “*Ul hazratning royi olamoroyikim, hamisha xarob va beob yerlarni obod-u serob qilmoqqa muqtazo erdi*” [JVS, 89^b]. Ushbu parchada keltirilgan “royi olamoroyi” – izofali sifatlash bo'lsa, “xarob va beob yerlar” birikmasi odatdagi turkiy qurilishli sifatlash hisoblanadi.

Ogahiyning ko'pgina o'rinlarda sifatlash qo'llashdan maqsadi ayni vosita orqali tasvirlanayotgan hodisaning u yoki bu “xislati”ga o'quvchi-kitobxonning diqqatini tortib, unda emotsional zavq uyg'otish bo'lgan. Masalan: “*Bahodirlar ul guruhi fitnaangiz aqabidin tavsani jalodatg'a mahmiz berib, shamshiri tez va sinoni xunrez zurubi bila a'do guruhin muzmahil ... qildilar*” [JVS, 106^a] – (*Bahodir askarlar asov otlarini etigi bilan tez-tez niqtab, fitna qo'zg'atuvchi guruh orqasidan yetishib, tezkor qilichi va qon to'kuvchi nayzalari zarbi bilan dushman guruhini yo'q qildilar*). Bu o'rinda “*guruhi fitnaangiz*”, “*shamshiri tez*”, “*sinoni xunrez*” birikmalari saj' usulida ifoda etilgan izofali sifatlashlardir. “Bahodir” so'zi aslida sifatlovchi bo'lib, ushbu o'rinda otlashgan holatda sifatlanmish bo'lib qo'llangan.

O'xshatishlarda, albatta, o'xshatilgan narsa, o'xshatilayotgan narsa, o'xshatish vositalari bo'ladi. Ogahiy o'xshatish vositasi sifatida *yonglig'*, *singari*, *misol*, *monand*, *masallik*, *kibi*, *go'yo*, *timsol* kabi leksik vositalardan (yordamchi so'zlardan) va *-day*, *-dek*, *-omiz*, *-oso* kabi grammatik vositalardan foydalangan: “*Ul kecha sahar vaqtida Abdullo inoq mashaqqati tamom va suubati molokalom bila qafasdin qochg'on qush masallik qal'adin chiqib, yo'lsiz yerlardin firor tariqig'a iste'jol qadamin qo'yub, ovorilig' dashtig'a yuz urdi*” [FI, 928].

Ogahiy o'xshatish san'atini qo'llar ekan, o'xshatilayotgan narsani (mushabbihun bih) ifodalashda ko'pincha tabiat hodisalari, hayvonlar, parrandalar, hasharotlar va tarixiy joy nomlaridan foydalangan.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobida “**Tarixiy-adabiy asarlar nazmiy qismi badiiyati**” masalasiga e'tibor qaratiladi. Bobning birinchi faslida “**Tarixiy-adabiy asarlardan o'rin olgan lirik janrlar haqida**” gap boradi. Tarixiy-adabiy asarlarning voqelikni aniq aks ettirishdan tashqari, adabiy-estetik zavq berishi, kitobxon shuuriga badiiy poeziya sehri bilan ta'sir qilishi Ogahiy ijodining o'ziga xos jihatlaridan biri hisoblanadi. Darhaqiqat, Abulg'oziy Bahodirxon boshlab bergan Xiva muarrixlik maktabi keyingi davrlarda, ayniqsa, Shermuhammad Munis faoliyatida yangi bosqichga ko'tarildi. Munisni o'ziga har tomonlama ustoz sanab, uni “*O'zbakiya xonadonining zubdasi, yuz dudmonining umdasi amoratmaob, fazilatintisob ustodi kiromiy*” [RD, 314^b] darajasida ulug'lagan Ogahiy arab, fors tilida yaratilgan tarixiy-adabiy asarlar mutolaasi, Mirxondning “*Ravzat us-safo*” asarining qolgan qismining tarjima qilishi, “*Firdavsu-l-iqbol*” asarining yakunlanmay qolgan qismini nihoyasiga yetkazishi natijasida muarrixlikka sidqidildan kirishadi. Ogahiy bunday mas'uliyatli vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirishi uchun yetarlicha manbalarga ega bo'lgan. Qolgan

tarixiy-adabiy asarlarini yaratishda bu jarayon asos vazifasini o'tagan. Tajriba ortib borgan sari Ogahiyda Xorazm tarixini to'liq yaratish ishtiyoqi ham orta borgan.

Ogahiyning tarixiy-adabiy asarlarida keltirilgan lirik merosi haqida bir qator tadqiqotchilar o'z fikrlarini bildirishgan⁵³. Bizningcha, Ogahiy istifoda qilgan har bir she'riy shaklning o'z o'rni, mavridi bor. Masalan, jang lavhalari, ov jarayoni, safar sharoitida, "hamd", "na't", chahoryorlar vasfi bayonida masnaviyga murojaat qilinsa, xon vafoti (mutavaffiyot), yangi xonning taxtga chiqishi (julus), imorat qurilishi va ta'miri, urushda g'alabaga erishish (fathiyot), shahzodalarning dunyoga kelishi bilan bog'liq holatlarda ta'rixdan foydalanilgan. Shuningdek, g'azal, qit'a, ruboiy, marsiya, qasida, munojotlarga ham janr tabiatidan kelib chiqqan holda murojaat qilingan.

Ogahiy tarixiy-adabiy asarlarida jami 13369 misra she'r keltirilgan bo'lib, shundan 12696 misrasi bevosita Ogahiy qalamiga tegishli⁵⁴. Ushbu lirik meros ham Ogahiy tomonidan g'oyat mohirona yaratilganki, ular shoirning devonidan o'rin olgan boshqa lirik merosi bilan badiiyat nuqtayi nazaridan bemalol bellasha oladi.

Masnaviylar. Ogahiyshunos olim A.Pirimqulov Ogahiy masnaviylari tadqiqotida shoirning "Ta'vizu-l-oshiqin" devoni hamda tarjima asarlaridan tashqari, tarixiy-adabiy asarlaridan o'rin olgan masnaviylarga ham alohida e'tibor qaratadi. Masnaviylardagi mavzu, g'oya va mohiyat masalasiga alohida to'xtalib, juda asosli fikrlar bildirib o'tadi. Mavzu ko'lami jihatidan ularni hasbi hol, ishqiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-tarbiyaviy, tabiat tasviri hamda tarixiy-madaniy kabi turlarga bo'lib, tasnif va tavsif qiladi. Har bir mavzu ko'lami doirasida shoir masnaviylaridan misollar keltirilib, batafsil tahlil qilinadi. A.Pirimqulov Ogahiyning tarixiy-adabiy asarlaridagi masnaviylar haqida fikr bildirar ekan,

⁵³ Рўзимбоев С., Аҳмедов А. "Фирдавсу-л-икбол"даги адабий жанрлар ҳақида. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: Фан, 2009. – №6. – Б.19-25.; Жабборов Н. "Зубдату-т-таворих"нинг адабий қиммати. // Огаҳий ижодий мероси – маънавиятимиз кўзгуси. – Хива: Хоразм Маъмун академияси нашриёти, 2009. – Б.23-25.; Shu muallif. Ўзбек бадий-тарихий насрининг сара намунаси. "Зубдату-т-таворих" асари сўзбоши қисми. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. 3-жилд. Зубдату-т-таворих (Тарихлар сараси). Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи филология фанлари доктори, профессор Нурбой Жабборов. – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б.4-27.; Шодмонов Н. Шоҳ ярлақан шоҳона асар. // Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. Шохиду-л-икбол. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Н.Шодмонов. – Тошкент: Sharq, 2019. – Б.13-24.; Ўрозбоев А. Хазон билмас давлат боғлари. "Риёзу-д-давла" асари сўзбоши қисми. Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. 4-жилд. Риёзу-д-давла (Давлат боғлари). Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи филология фанлари доктори Абдулла Ўрозбоев. – Тошкент: Шарқ, 2020. – Б.4-11.; Султонова Қ. "Гулшани давлат" муҳим адабий манба: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, Ўз Р ФА ТАИ, 2000.; Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002. – Б.172-173.; Исмаилов И. Огаҳийнинг "Жомеъу-л-воқеоти султоний" асарида бадий санъатлар ва фольклор аъёналарининг қўлланилиши: Филол. магистри академик даражасини олиш учун тақдим этилган дисс. – УрДУ АРМ, 2004. – 84 б.; Назирова Х. Қўнгиротлар сулоласи тарихнавислигида Муҳаммадризо Огаҳийнинг "Зубдат ут-таворих" асари: Тарих фан. б. фалс. докт. дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – Б.16-17.; Бекчонов И., Полвонов Н. "Фирдавсу-л-икбол" асари ҳақида. "Фирдавсу-л-икбол" асари сўзбоши қисми. Шермуҳаммад Авазбий мироб ўғли Мунир, Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Асарлар. 2-жилд. 1-китоб. Фирдавсу-л-икбол (Бахт-саодат жаннати). Нашрга тайёрловчи, кириш ва изоҳлар муаллифлари: филология фанлари номзоди Исмоил Бекчонов ва тарих фанлари номзоди Неъматжон Полвонов. – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б.14-15.; Пиримқулов А. Моҳият ва мазмун. – Тошкент: Фан, 2001. – Б.8.; Матёкубова М. Огаҳийнинг тарихий асарларидаги кичик шеърӣ жанрлар. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1999. – №6. – Б.42.

⁵⁴ Ismailov I.O. Ogahiy tarixiy-adabiy asarlaridagi lirik janrlar haqida. // Ilm sarchashmalari. – Urganch, 2022. – №12. – Б.5.

ularning miqdorini to‘rt ming baytga yaqin deb hisoblaydi⁵⁵. Tadqiqotchi bu yerda Ogahiyning bevosita o‘z qalamiga mansub beshta tarixiy-adabiy asari bilan cheklanadi. Bundan tashqari, agar “Firdavs ul-iqbol” asarining Ogahiy qalamiga mansub qismidagi hamda tarixiy-adabiy asarlardagi “Nazm” sarlavhasi bilan berilgan masnaviylar ham qo‘shilsa, jami 5091 bayt (10182 misra) bo‘lardi.

G‘azallar. Ma‘lumki, g‘azal mumtoz adabiyotning eng keng tarqalgan janri bo‘lib, ayni paytda u shoir badiiy mahoratining mezoni ham sanalgan. Garchi Ogahiyning tarixiy-adabiy asarlarida g‘azallar hajmi katta bir qismni tashkil qilmasa ham (21 g‘azal, 352 misra), lekin ularda shoir o‘z mahoratini ma‘lum bir ma’noda aks ettira olgan.

Qit‘alar. Ogahiy tarixiy-adabiy asarlarida 2 baytdan 12 baytgacha bo‘lgan jami 572 misradan iborat 103 ta qit‘a uchraydi. Eng ko‘p qo‘llanilgani (64%) an‘anaviy 2 baytli qit‘alardir. Bu qit‘alar mavzu jihatidan turlicha bo‘lib, har xil ijtimoiy-iqtisodiy masalalar va muammolarni atroflicha yoritishga bag‘ishlangan. Jumladan, Ogahiy xalq hayoti, xon va uning atrofidagi voqea-hodisalar, nafs va qanoat, xiyonat va adovat, insoniy fazilatlar va nodonlik illatlari, o‘zaro urush va nizolar, jamiyatdagi tengsizlik va adolatsizliklar, itoat va isyon kabi masalalarni qamrab olishga harakat qilgan. Shu bilan birga, shoir qit‘alari tasvirlanayotgan voqea-hodisalarning badiiy izohini, umumlashma xulosalarini, yakuniy tugal ma’nolarini ham anglatadi.

Ruboiylar. Ogahiy tarixiy-adabiy asarlarida keltirilgan 20 ta ruboiyning 15 tasi xosayi ruboiy, 5 tasi taronayi ruboiy sanaladi. Bu ruboiylar, asosan, biror voqea munosabati bilan yozilgan, masalan, shoh va shahzodalar madhi, ayrim o‘rinlarda imorat ta‘miri va qurilishi, tabiat va ov jarayoni tasviri, isyonchilarga ogohlik da‘vati kabi mavzularga bag‘ishlangan.

Ta’rixlar. Ogahiyning tarixiy-adabiy asarlaridan shoirning salaflari, zamondosh shoirlar va o‘zi tomonidan turli munosabatlar bilan yozilgan 52 ta ta’rix o‘rin olgan bo‘lib, ular jami 974 misrani tashkil etadi. Shundan Ogahiy qalamiga mansubi 596 misradan iborat 33 ta ta’rix sanaladi. Bu ta’rixlarning aksariyati fors-tojik tilida, ayrimlari o‘zbek tilida yaratilgan. Ogahiyning ta’rixlarini mavzu ko‘lami jihatidan quyidagicha tasniflash mumkin bo‘ladi: 1. Mutavaffiyotlar. 2. Mutavaffiyot va julus ta’rixlari. 3. Julus ta’rixlari. 4. Tavallud ta’rixlari. 5. Imorat va ta‘mir ta’rixlari. 6. Fathiyot ta’rixlar.

Fardlar. Ogahiy tarixiy-adabiy asarlarida jami 79 ta fard uchraydi⁵⁶. Shoir axloqiy-ta’limiy, didaktik fikrlarini ixcham tarzda alohida ta’kidlab ko‘rsatish maqsadida bu janrga murojaat qilgan.

Marsiya. Islomgacha bo‘lgan davrda arablarda hijo (hajviya) va riso (marsiya) janrlari shakllangan edi. Marsiya janri Ogahiyning “Gulshani davlat” (90 misra) va “Shohidu-l-iqbol” (226 misra) asarlarida uchraydi. “Gulshani davlat” asarida keltirilgan marsiya 15 banddan iborat musaddas shaklida berilgan bo‘lib, Sayyid Muhammadxon vafotiga⁵⁷ bag‘ishlangan.

⁵⁵ Пиримкулов А. Ko‘rsatilgan manba. – Б.9.

⁵⁶ Bu fardlarning aksariyati “Bayt”, kam hollarda “Nazm” sarlavhasi bilan berilgan.

⁵⁷ Sayyid Muhammadxon hijriy 1281-rabi’ us-soniy oyining 21-sanasi, milodiy 1864-yil 22-sentabr kuni vafot etgan.

